

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 20-may chorshanba №20(9605)

SO'NGGI QO'NG'IROQ

Chalinganda so'nggi qo'ng'iroq,
Duo berdi ona maktabim.
Orzularim bog'ladi qanot,
Parvozga shay shonim, matlabim.

Kuni kecha o'quvchi edik,
Qo'ldan tushmas edi "Alifbo".
Ichimizda shundayin derdik:
"Muallimlar – sehrigar go'yo!"

Bugun hamma ulg'ayib shodon,
Hayot gulshanida yuribmiz.
Ustozlarning mehrini hamon
Yurak bilan sezib turibmiz.

Ketmas sira xayolimizdan
Muallimlar har so'zi, pandi.
Do'stlar, ketmang hech oramizdan,
Har kimning bor qalbga payvandi.

Quchog'ingda yuragim, maktab,
Xotirada mangu qolajak.
Bu dargohdan ilm olganlar
Qo'lidadir hali kelajak.

Yetarlidir bilim va hunar
Ishonchingni shogirdlar oqlar.
O'zbekiston – nurli diyorning
Istiqbolin sevib ardoqlar.

Chalinganda so'nggi qo'ng'iroq,
Duo berdi ona maktabim.
Orzularim bog'ladi qanot,
Parvozga shay shonim, matlabim.

Abdulla AYIZOV,
O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi

MENI KIM ESHITADI? RAQAMLI DAVRDA BOLALIK

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Bir zamonlar "Falonchi o'qishga kiribdi, talabalikka qabul qilinibdi" degan xabarni eshitsak, chin dildan quvonardik, havas qilardik. Bugun esa o'qishga kirish oddiy holga aylanib qoldi. Avvalgidek hayrat, qiziqish va samimiy quvonch sezilmaydi.

Erkinjon YARASHEV



O'quvchilarim 11-sinf bo'lgani uchun sinfingda deyarli kunora xususiy OTMlardan vakillar kelib, reklama va targ'ibotlar o'tkazishadi. Kepka, futbolkalar ulashib, qulayliklarning chek-chegarasi yo'qligini aytishadi. "Qachon bizni tanlasangiz, bimalol murojaat qiling" deb telefon raqamlarini ham qoldirib ketishadi. Shunday paytda o'qib, sertifikat olib, tinmay mehnat qilayotgan o'quvchilarim tayyorgarliksiz, beparvo yurgan sinfdoshlariga qarab chuqur xo'rsinib qo'yishadi. Ularning ichidan nimalar o'tayotganini esa faqat o'zlari biladi.

Nargiza BEKNAZAROVA

5-bet

MUQADIMMA

Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radi. Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhiyatini ko'taradi. Ular har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadi, odamlarning muammolari esa ularning ham dardiga aylanadi.

Ular – vatanparvar. Har holda O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanini teran his qiladilar, kayfiyatlari ko'tariladi. Xudoga ming shukrki, bu o'zgarishlar har soatda, har kuni ro'y berib turibdi. Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar jaydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bema'lol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan boxabar. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurillab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga "Biz oldinga ketibmiz" degan xulosaga keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmish olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytib qoldim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'izdan tasdiqladi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganmiz!

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi?

Axir biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku!

Uning ortida kimning mehnati-yu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha hududida yoyilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

Savollarga javob bitta: bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilmagan fidokorligi!

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri, bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofot-u unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...

1

Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi?

O'zimning boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimiz necha-necha qishlar bo'yi isimasdi. Bir farzandim keyinchalik "Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik", deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. "Ishlasang, nafaqangning yarmi to'lanadi", deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'pga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan bog'liq mashmashalarni-ku, aytmay. Do'kon-ga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. "Naqd olsangiz, sakson so'm, plastik karta bilan to'lasangiz, yuz..."

Denovda – bozorning naq o'rtasida "plastik kartadagi pulni naqdga almashtirish punkti" ochildi. O'sha bezbet shaklda – yuz so'm yechib olishsa, sakson so'm qo'lingga berishadi. Eng dahshati, bu "punkt"ni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritdi. Dodingni kimga aytishni bilmaysan...

Bu lo'ttiboqliklar butun xalq ko'z o'ngida ro'y berdi. Hech kim miq etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdirsizlik – ertani o'ylashdan cho'chish – mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kassalarining yoniga ham borolmaysan. Banklar dollarni sotuvga chiqarib, o'zi sotib olib yotibdi. Odamlarini qo'yib qo'ygan – allaqanday shang'ixotinlar...

Bozorga borasan. Har qadamda "dollarlarchi"lar shaykasi... Dollarning narxi rasmiy kursdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan.

Surxondaryoda g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yeb ketishganini aytdi. Men bir-ikki amaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlikning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmasdi. Mamlakatni firibgarlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi.

Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik(boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rnida ko'rmadilar. Xo'rladilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilmagan qiynoqlarga soldilar, o'ldirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi "pog'ona"larga ko'tardilar.

– Tirmoqlarimni sug'urib oldilar, – deb zorillab eslaydi ularning qo'liga tushgan bir begunoh. – Hammasini baravar sug'ursalar ham mayli edi, har kuni bittasini sug'uradilar...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtida ular ham ishlashdan bezib qoldi. Noiloj ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qoldi.

RIYOSIZ

Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qila boshladi: "Ana siz orzu qilgan istiqlo..."

Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda "Birovlar harom-xarish yo'l bilan pul to'playapti. Payti kelgach, pulini ko'tarib, xorijga jo'nab ketadi" degan rost gapni aytgan edim, xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniyedagi necha-necha ijodkorlar jazolandi, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, nochorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'llik ham zarur edi. Ammo mamlakat rivojlanib borgani sari bu qattiqqo'llik o'rmini adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki eng tepadagi odam ham nayrangbozlarning qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oilasida ro'y berayotgan voqealardan ham g'aflatda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqorida yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozilsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarimning va tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminigina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... birdan mo'jizalarga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.

Aytib o'tganim – ko'rgiliklar bita-bitta yechimini topib ketaverdi. To'lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi. Pensiyalar to'liq beriladigan bo'ldi. Banklar yangicha ishlash tizimiga o'tdi: xohlasalaring, mana so'm, istasalaring dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasorat kerak bo'lgani faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o'ziga ayon. Axir qalamga olganim hodisalardan tashqari, uning zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalari shaykasini tugatish naqadar qiyin bo'lganini tasavvur qilaman. Axir ular osmondan tushmagan – bu gumrohlarni Toshkentdagi martabasi baland, beli baquvvat, birovni nazar-pisand qilmaydigan homiylari qo'llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to'dasining ko'lami juda katta – bir-biri bilan zich bog'lanib ketgan, xalqning manfaati degan muqaddas tushunchani tushida ham ko'rmagan, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to'daning boshi kesildi. Bu ish oson bo'lmadi. Bo'shangroq

bir odam bo'lganda ular bilan murosayi madora etib ketaverardi. Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o'ziga ep bilmadi. Chunki o'rtada Vatan, xalq taqdiri bor edi. Bo'lajak Vatanni bunday to'dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqislardan tozalab, pokiza niyat va ezgu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi.

Qotillik illati yuqqan bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval "tepa"dagi, keyin pastdagi qatlam ildizi bilan sug'urib tashlandi. Bu gaplar aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida ushbu voqealar kimgadir juda kichik epizod bo'lib tuyular, ammo Vatanni xalqning boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to'dalardan ozod etish uchun rahbarimizga qanchalar matonat va qat'iyat kerak bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring!

Esimda: bu voqealar nihoyasiga yetkazilgach, Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, "Surxondaryo xalqi, endi ozodsan!" deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan, Surxondaryo erkin nafas oldi.

Men faqat yaxshi bilganim – Surxondaryo haqida yozyapman. O'zbekistonda esa o'n to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bor. Prezidentimizning ulardagi muammolarni hal etishdagi mardonavor sa'y-harakatini qalamga olish uchun esa bu maqola kichiklik qilishini sezib turibman.

2

Odamlar yaxshilikka tez ko'nika-di. Bir-ikki "Yaxshi bo'ldi-ye!" deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo'lganday o'tib ketaveradi. Nazarimda, shunday bo'lgani ham durust! Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganyapti! Munosib yashash mo'jiza emas, shunchaki har kuni biz yuzma-yuz duch keladigan voqelik ekaniga ko'nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman.

Avliyolar, olimlar maskani bo'lgan Termiz esimni bilganimdan buyon ko'rimsiz, chang-to'zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq – yopiq harbiy shaharcha edi. Unga kirishning o'zi ham bir mashaqqat – harbiylarning posti o'rnatilgan, har bir yo'lovchining pasporti sinchiklab tekshirilar, agar Surxondaryo hisobida bo'lmasangiz, o'tib ko'ringchi!

Mustaqillikdan keyin esa, xabarimgiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o'rtasida sun'iy to'siqlar – postlar o'rnatildi. Bu holat xalqimizning mamlakatimiz bo'ylab erkin harakatlanishiga xalal beradigan ortiqcha mashmasha edi. Pasportni unutgan bo'lsangiz, bu postlardan o'tishning yagona yo'li – imkonini topib, "posbon"larga pora berish edi... Boshqa ilojingiz yo'q. Nazarimda, bu

SO‘ZLAR

postlar xuddi shunday vaziyat yaratish uchun qo‘yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu holat yo‘lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakkab edi. Viloyatga kirishda – Darband postida xuddi xorijga ketayotganingiz kabi bor-yo‘g‘ingiz tintilar, yuklaringiz esa lentaga solinib, lazerli uskunalar yordamida ko‘zdan kechirilardi. Bu ham yetmagandek, jomadon-u sumkalar ham ochdirilib, tekshirilardi... Tintuv. Xullas, pora bermasangiz, qutulib bo‘psiz. Termizga va Sariosiyoqa kiraverishda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to‘siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo‘q bo‘ldi.

Chang-u g‘uborga qorishgan Termiz ham birdan o‘zgara boshladi.

Hozir bu shahar ko‘chalarining ikki chetida manzarali daraxtlar soya tashlab turibdi. Ketgunicha yam-yashil chimzor. Gullar ajib did bilan ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, mana shunday go‘zal – bir qarich ham uzilmagan manzarani oralab, aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shinam, ko‘rkam imoratlar ham yarashqli. Menga o‘qituvchilardan biri “Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to‘liq ta‘minlangan, bir xonadonda ikki-uch oila tiqilib yashashdan qutulgan”, deb qoldi. Amaldor emas, o‘qituvchi aytdi!

Termiz esa o‘syapti. Baland-baland binolar qad ko‘taryapti. Hatto shahar erkin nafas rostdab, tiqilmay kengayishi uchun qo‘shimcha yerlar kerakligi ko‘zga tashlanib qoldi. Shavkat Miromonovich bu masalani ham hal qilib berdi – shaharga qo‘shimcha joylar ajratildi.

O‘quvchida “Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yashnayotgan ekan” degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo‘yay, viloyatlardagi barcha tumanlar o‘zgacha qiyofa kasb etgan. Chamasi, besh-olti yil avval bir guruh san‘atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo‘lda bir zum chalg‘ibman. O‘zimga kelib qarasam, bir notanish shaharning yonidan o‘tyapmiz. Ko‘p qavatli uylar, orasida orasta yo‘laklar, daraxtlar, bolalar o‘ynaydigan maydonchalar lip-lip o‘tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning har bir qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko‘rayotgan bo‘lsam? Bir oz yurgach, angladim: bu – Denov. Ha, o‘zim boshdan-adoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar – mo‘jiza qachon, qanday barpo bo‘ldi? Shuncha tezmi? Angladim – bu mo‘jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo‘lgan! So‘ng tasavvur qildim: mamlakatda qancha tuman bor, qancha shahar bor, boringki, mahallalar bor... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo‘lsa kerak-da! Ketyapti!

Butun mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

3

Men majlislarda kam qatnashaman. Maqsad majlis o‘tkazishdangina iborat bo‘lgan yig‘inlardan o‘zimni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o‘tganini sezmadim. Zavqlanib o‘tirdim. O‘zbekistonni sevadigan bir vatanparvar sifatida faxr-u quvonchga to‘ldim. Gap Vatanimizning bir bo‘lagi bo‘lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan rejalar haqida so‘zladi.

Majlisda rejalar haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko‘lamli va aniq tayyorgarlik ko‘rilgani ma‘lum bo‘ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag‘ bor (bank boshlig‘i tasdiqlaydi yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilgani aytiladi), bu rejani amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdi. Har bir loyihada qancha ish joyi ochilishi ham ochiqlab borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so‘z ketganda, shu tartib amalga oshirildi. Biror-bir ishni bajarish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat‘iy ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarining bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlar hozir turganini, O‘zbekistondan imo bo‘lgach, shu zahotiyoy uchib borishini ma‘lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas – Xitoydan tortib, Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmadi. Prezidentimiz bugun nima ishlarni bajarish lozimligini, ertaga nimaning amalga oshirish kerakligini ichki – ongosti tuyg‘u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Katta-yu kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas‘uliyat bilan yondashishiga, ba‘zan badihalariga ham guvoh bo‘ldim.

Majlisdan avval boysunlik – kurash bo‘yicha birinchi jahon chempioni Toshtemir polvon Muhammadiyev bilan yosh kurashchilar uchun ochilgan internat haqida suhbatlashgan edik. Majlis so‘ngrog‘ida Prezidentimiz ana shu polvonga murojaat qilib qoldi:

– Sening internatningning maktabi yo‘g‘-a?

– Yo‘q, – dedi polvon.

– Bolalar qayerga o‘qishga boradi?

– Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.

Shavkat Miromonovich ko‘zi bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:

– Puling bor-a?

– Ha, – deb o‘rnidan qo‘zg‘aldi “kerakli odam”.

– Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?

“Kerakli odam” jon deb rozi bo‘ldi.

– Birinchi sentabrgacha tayyor bo‘lsin! – dedi Prezidentimiz.



Zavqlanganimdan sekingina bo‘lsa-da “Voya”, deb yubordim. Axir Shavkat Miromonovichning yelkasida qariyb o‘ttiz to‘qqiz million nufusli xalqning tashvishi turibdi! Mamlakatda eh-he qancha maktab bor! Endi kelib-kelib, Prezidentimiz Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o‘tirsan!..

Yig‘inda menga ham so‘z berildi va men bu majlisni surxondaryoliklar uchun bayram deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatan degan muhtasham imorat rivoji uchun qo‘yilgan har bir g‘isht – bayram. Bugun esa qanchadan qancha g‘ishtlar qo‘yildi!

Bu majlisda aytilgan va kelgusida amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasi qanchalar boyishi, odamlar xonadoniga qanchalar fayz-u baraka olib kirishi haqidagi raqamlarni eslab o‘tirayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug‘ xabarni aytmasam bo‘lmaydi.

Yigirma oltinchi aprelda Boysunga boradigan bo‘ldim.

Termizdan keladigan yo‘l manzilga olti-yetti kilometr qolganda yuqoridagi majlisda tilga olingan – bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband – Denov trassasiga qo‘shiladi. Biz bo‘lajak trassaga tushdik. Pishiq qilib ishlangan beton yo‘l. G‘izillab ketyapmiz. Faqat ikki joyda gavarasi ko‘tarilib, qurilishi nihoyasiga yetmagan ko‘priklarni aylanib o‘tdik, xolos. Ichimda “Bir-ikki oyda bitib qolar”, deb o‘yladim.

To‘rt kundan keyin “Boysun bahori” festivalida qatnashish uchun shu yo‘ldan yana o‘tishga to‘g‘ri keldi. Bu safar mashinamiz tayyor bo‘lgan ko‘priklar ustidan g‘izillab o‘tib ketdi! Ha, tayyor bo‘lgan ko‘priklar ustidan! Oradan faqat to‘rt kun o‘tib!.. Yana ruhimni quvonch seli bosdi! Qoyil! Va Termizdagi majlisda aytilgan barcha rejalar o‘z muddatida bajarilishiga ishonchim komil bo‘ldi.

Prezidentimiz yig‘in so‘ngida shu taxlit rejalar bilan barcha viloyatga va Qoraqalpog‘istonga borilishini ta‘kidlab o‘tdi! Yana mamlakat kelajagini barpo etish yo‘lida ommaviy jadal harakat! Bir zum bo‘shashmaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalar. Bu rejalarining asoschisi Shavkat Miromonovich ham bir zum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaati uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!

Men yaqin kelajakda yurtimizning eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan o‘rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo‘shilmaydiganlar bo‘lsa, Jahon bankining O‘zbekistonning rivojlanish sur‘ati haqidagi raqamlariga murojaat etsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarishi sur‘atini 7,7 foiz etib, prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislarning fikricha, o‘n-o‘n ikki yildan keyin O‘zbekistonning yalpi ishlab chiqarishi trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko‘z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo‘yyapmiz! Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin hozirgina o‘qib qoldim: o‘shimiz sur‘ati ularning taxminidan juda yuqori – 8,7 foizdan ziyod ekan!

4

Dunyoning ulug‘ donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelgan. Insonlar, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘zi ham aralashib, ne-ne g‘avg‘olarni boshdan o‘tkazgan Alisher Navoiy bir kuni mana bunday satrlarni bitgan:

*Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki,
erur yorlig‘ ish.*

Bu bayt ma‘nosini barcha anglab turgan bo‘lsa ham mayli, sharhlab qo‘yay: “Dunyo odamlari, – deyapti shoir, – bilib qo‘ying: dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do‘st bo‘ling, insonga faqat do‘stlik yarashadi”.

Shavkat Miromonovich, nazarimda, hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham “dushmanlig‘ ish emas” ekanini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlarda o‘rtasida avj olgan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U boshqargan Vazirlar Mahkamasining vazifasi xo‘jalik yuritish bo‘lgani uchun qo‘shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imillayotganini teran his qilgan. Eng muhimi, bu g‘alvalardan odamlar ham azoblanayotganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

(Davomi 4-betda.)



RIYOSIZ SO‘ZLAR

(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Albatta, shunday bo‘lgan! Shu bois, Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvi jilovini o‘z qo‘liga olgach, bir zum tin olmay, avvalo, qo‘shnilar bilan qardoshlik-qarindoshlik rishtalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og‘ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o‘ziga ma‘lum. Ammo natija qutlug‘ – qo‘shni mamlakatlarga yo‘limiz tushsa, O‘zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko‘ryapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho‘rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida chegara bor-yo‘qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo‘lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o‘tib ketaverardik. Ba‘zilar kattaroq bozor-o‘charini Dushanbega borib qilardi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o‘tgach, hamma o‘ziga xon, o‘ziga bek bo‘lib oldi. Chegaradan o‘tish ushalmas orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan boshog‘riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir kekxa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda jigaring qabrini ziyorat etish uchun sakkiz yil urinib, chegaradan o‘tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoning orasi, ha boringki, yarim soatlik yo‘l!

Ikki mamlakat o‘rtasida do‘stlik-birodarlik munosabatlari o‘rnatilgach, qarindoshlar bu uzoq ayriliqdan so‘ng yig‘lab-siqtab yuz ko‘rishdi. Dushanbedan shuvillab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to‘rt sariosiyolik do‘stlar “Dushanbeni bir aylanib kelaylik”, deb yo‘lga chiqadigan bo‘ldi. Bir qadam yo‘l! Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasiz!

Tojikistonni boshqa hududlar, qo‘yingki, jahon bilan bog‘lovchi asosiy yo‘llar yurtimiz orqali o‘tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega tojik xalqining xurramligi nechog‘liq bo‘lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo‘shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Emomali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo‘r lutf etgan edi: “Bular, – dedi u zalni to‘ldirib o‘tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, – sizni mendan ham ortiq yaxshi ko‘radi!”. Mana hurmat! Mana qardoshlik!

Prezidentimizning bu tashrifidan so‘ng bir muddat o‘tgach, besh-olti yozuvchi jam bo‘lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz Boysunda tug‘ilgan do‘stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda yozlik engil-bosh... Aeroportda esa bizni o‘n-o‘n besh chog‘li kishi – oppoq ko‘ylak, qora kostyum-shim kiygan tojik do‘stlarimiz kutib oldi. Ertasi kuni kutilmaganida Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qardosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o‘tkazildi. Yana hamma o‘sha rasmiy kiyimda. Ko‘cha-

da esa yoz... Birodarlar, bu tarzda majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O‘zbeklarga izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og‘aynilar keldi. Men yo‘lda qanday ketsak bo‘ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma‘qul, milisalar to‘xtatsa, qanday muomala qilish kerak deb so‘rab qoldim. Har holda mashinalarimiz raqami O‘zbekistonniki-da! Tojik do‘stlarning javobi meni hayron qoldirdi:

– Har qanday tezlikda haydayveringlar! Milisalar to‘xtatmaydi! Prezidentimiz “O‘zbeklar mening mehmonim – ularga hech kim teginmasin”, deb yuqori minbarda aytgan!

Qalay?

Bu gaplar o‘zbek xalqiga hurmatning eng cho‘qqisi edi.

Ikki xalq o‘rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko‘tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy – diplomatik mahorati va insoniy fazilatlarini bilan bog‘liq edi.

Yaqinda atoqli o‘zbek shoiri Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligini nishonlash uchun O‘sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo‘lga chiqdik. Ilgari ham O‘sh safarida bo‘lganman. Chegara mashmashalarini o‘ylab, ko‘nglim xijil bo‘lib borayotgandim. Ammo bezovtalikka o‘rin yo‘q ekan. O‘zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko‘rsatib, bemalol o‘tib ketaverdik. Qirg‘izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemalollikni yaratgan, ikki xalq o‘rtasida ishonch va haqiqiy do‘stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir, bu ikki qo‘shni xalq o‘rtasidan nimalar o‘tmagan edi!

Shavkat Rahmonning yubileyiga bag‘ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o‘tdi. Majlisda Qirg‘iziston hukumatining bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkiloti rahbari, O‘sh shahri hokimi qatnashdi va nutq so‘zladi. Shavkat Rahmon o‘qigan maktabga va shaharning katta ko‘chalaridan biriga shoir nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir shunday ehtironga arziydi. Shubha yo‘q. Ammo baribir bu samimiy ehtiramning sababchisi Shavkat Miromonovich ekanini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog‘iston safarida bo‘lganimda do‘stlarning xuddi shunday mehri uch keldim. Bir emas, bir necha mukofot bilan taqdirlandim. Hatto xorijiy bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozoq do‘stlarimizning tavsiyasi bilan menga topshirildi. Agar munosabatlarimiz avvaldagiday g‘arazli kechganda, shunday hol ro‘y berarmidi?!

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag‘rikenglikning va mehr-u muhabbatning bosh me‘mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko‘rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O‘zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo‘shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kuni o‘zgarayotgan bu

chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarimiz ham aytishga arzigulik ekanini ta‘kidlab o‘tmoqchiman. Masalan, Afg‘oniston bilan yetarli darajada aloqalar o‘rnatganmiz. Axir bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzumiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko‘priktan o‘tib, o‘zbek tuprog‘iga qadam qo‘yilgan joyda “O‘zbekiston – Afg‘oniston chegara oldi savdo hududi” bunyod etilgan. Qator-qator do‘konlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdo-sotiq avjida. Hudud to‘lib-toshib ketyapti. Prezidentimiz bu hududga yana qo‘shimcha yer ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo‘shnilarimiz ham O‘zbekiston rahbari sha‘niga iliq so‘zlar aytgani-aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro‘ga ega bo‘lish oson ish emas. Bu rutbaga iste‘dodli, o‘zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan, o‘z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko‘radigan siyosiy arboblarga sazovor bo‘ladi.

Mana shunday obro‘ga ega bo‘lganlardan biri esa bizning Prezidentimiz – Shavkat Miromonovich! Ha, o‘zimizning Prezidentimiz!

5

Mamlakatimizdagi o‘zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi “Men – o‘zbekman!” deganlarni quvontiradi.

Masalan, keyingi oylardagina ro‘y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval birov “Barchamizning jonimizga tekkan shu paxtadan sakson-to‘qson sentnerdan hosil olinadi”, desa, kamina “Qo‘ysang-chi”, deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo‘ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryoda! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O‘rtacha yigirma sentnerdan hosil olinsa, do‘ppi osmonga otilardi! Endi esa... Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o‘zi ham chanoqlar boshdan-adoq ochilgan paxtazorga qarab, hayrat bilan gapirganiga guvoh bo‘lganman. Xorijdan urug‘lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o‘zimiz ham qarab turganimiz yo‘q. “Porloq” navli g‘o‘zamiz xorijiy navlardan ortiq bo‘lsa ortiq, lekin kam emas!

Bir jumla bilan bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro‘y berdi!

Hayratlanarli yana bir voqea.

Olmalikda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bunday fabrikalar qurilib, ishga tushirilish jarayoni butun jahonda o‘n yilga cho‘zilar ekan. Bizda esa to‘rt yilda (ha, to‘rt yilda!) amalga oshirildi. Bu muddatga hatto o‘zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqirmagan ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O‘zbekistonning bu tezkor tajribasini o‘rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o‘zbeklarning necha-necha avlodi g‘ururlanadigan mo‘jiza – Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan

qurilgan koshona. Devorlarida qo‘l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig‘ib kelingan – ilgari o‘zimizdan olib chiqib ketilgan noyob eksponatlar, Usmon Qur‘oni, qadimiy qo‘lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi...

Shavkat Miromonovich markazning qurilishi haqida qiziq tushuntirish berdi: “Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik...”.

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, balki san‘at asari qurilayotgan edi! San‘at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan!

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo‘jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

– Sen, – dedi ularning biri imorat bor bo‘yicha ko‘ringach, – Tojmahalni ham ko‘rgansan. Qaysi zo‘r?..

– Bu zo‘r-ov, – dedi hamrohi bingoga nazar tashlab. So‘ng ishonch bilan bir qarorga keldi. – Bu zo‘r!

Tamom, vassalom! Bu zo‘r!

Bunday bunyodkorliklar haqida yozaversam, ado bo‘lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim. Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkentdan Xorazmga yo‘l olgan “Jaloliddin Manguberdi” tezyurur poyezdi, Toshkent viloyati markazidan Bekoboddan aylantirilib, Yangiyerga boradigan yangi 111 kilometrli yangi temir yo‘l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo‘l, Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarining boshlanishi...

Nazarimda, hayratlarimning endi cheki bo‘lmaydi.

SO‘NGSO‘Z O‘RNIDA

Sport ishqiboziman. Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam – to‘qsoninchi yillarning oxirida bo‘lsa kerak, futbol gazetalaridan biriga intervyu olib qoldi.

– Mana, Yaponiya futbol jamoasi jahon chempionati finaliga yo‘llanma oldi, – dedi u. – Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz?

– Endi, – dedim men atrofimdagi voqeliklarni bir zum ko‘z oldimga keltirib, – mamlakatimizning Yaponiyaga mengzab rivojlanishini kutamiz-da, ukam.

Orzumizga erishdik. Futbolchilarimiz final yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengzab ketyapmizmi? Shunga juda o‘xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur‘ati kunchiqar yurtnikidan ancha baland.

Ishonchim komil, shunday bo‘ladi!

Chunki Vatanimizning bugunini va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilarmon va adolatli inson bel bog‘lagan!

Usmon AZIM,
O‘zbekiston xalq shoiri
("Yangi O‘zbekiston" gazetasining
2026-yil 12-may sonidan olindi.)

Jarayon



UNICEFning 2025-yilgi “Child Well-Being in an Unpredictable World” (Beqaror dunyoda bolalar farovonligi) hisobotida ta’kidlanishicha, zamonaviy bolalik global tahdidlar fonida shakllanmoqda va bu bolalarning ruhiy holati, sog’ligi hamda ta’limiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Ya’ni bolalik endi oila va maktab muhitida emas, global jarayonlar ta’sirida shakllanayotgan murakkab ijtimoiy hodisaga aylandi. Nima deb o’ylaysiz, raqamli davrda farzandingizga yetarlicha g’amxo’rlik qila olyapsizmi?

MENI KIM ESHITADI?

Raqamli davrda bolalik



Ba’zan ularning ko’zlaridan anglagan haqiqatlarimdan yuragim larzaga keladi...

Shahnoza SA’DINOVA, 4 farzandning onasi:

– Baxtli oila edik. Turmush o’rtog’imning xiyonati sabab ajrashganmiz...

To’rt nafar (16, 11, 9, 4 yoshli) qizim bor. Ularga ham ona, ham dugonaman, biroq moddiy ta’minot to’liq o’z zimmasidagi sabab farzandlarimga ko’p vaqt ajrata olmayapman. Ba’zan ularning ko’zlaridan anglagan haqiqatlarimdan yuragim larzaga keladi: vaqtim sabab ko’pam suhbatlashib, fikrlarini tinglolmasligim, doim ham uy vazifalarini birga bajarib, ruhini ko’tara olmasligim, aksariyat hollarda ota-onasiz o’tadigan bayramlari, yolg’iz chizib, qanday rangga bo’yashni bilmagan suratlar...

Bola o’z-o’zidan katta bo’lib qolmaydi. Unga vaqtda mehr berish – har kuni suhbatlashish, kayfiyati, sog’ligidan boxabar bo’lib, ta’lim-tarbiyasi uchun qayg’urish lozim. Ayniqsa, bugun bolalar tabiyasi masalasi ancha murakkablashdi. Bu avlodni kuchli va mehribon ota-ona, o’z us-tida doimiy izlanadigan pedagoglarga yaxshi tarbiyalay olayapti deb o’ylayman.

Afsuski, farzand tarbiyasi masalasi oxirgi o’ringa tushib qoldi...

Oftobxon Alixonova, 2 farzandning onasi, 4 nabi-raning buvisi:

– Avvalgi ota-onalar qo’liga hech bo’lmaganda gazeta olib o’qir edi. Hozirgi ota-onalar yangi avlod darsliklari murakkabligidan farzandi bilan birga dars tayyorlay olmayapti. Juda ko’pchiligi ro’zg’or tashvishi, moddiy ta’minot bilan band, chet elga ishlash uchun ketganlari ham ko’p. Afsuski, farzand tarbiyasi masalasi oxirgi o’ringa tushib qoldi...

Hilola Mamajonova, 3 farzandning onasi:

– Dadam maktab kutubxonasidan olib kelgan kitoblarni talashib o’qirdik. Bobomning uyi tokchasi sarg’ayib ketgan gazetalarga to’la edi. Bahorda dovuchchani hovuchlab terib, tuzga botirib, tomida, shabbodaga yuzimni tutib kitob o’qirdim. Shunday berkinib o’qimasam, ishga tutishardi. Maktab darslarini ham qiziqib o’qirdik. Ota-onamiz o’qishimizni nazorat qilmasa ham vazifalarni mustaqil bajarardik.

Endi-chi? Ota-onalarning ko’pchiligi tirikchilik ilinjida. Otalar chet elda, onalarning aksari dunyo matohlari bilan ovora. Bolasining o’quv qurollari to’liq emas, lekin qimmatbaho buyumlarga pul topishadi...

Habiba Aliyeva, 2 farzandning onasi:

– Bugungi avlod rostdan boshqacha. Ular juda tez fikrlaydi, biroq diqqati tez chalg’iydi. Oldinlari bolalar

deyarli oila va mahalla ta’sirida ulg’ayishgan, bugun esa internet, ijtimoiy tarmoqlar asosiy ta’sir manbayiga aylandi. Va o’ylashimcha, bugun qattiqqo’l ota-ona emas, ongli va mehrlil yo’lboshchi bo’la olsak, tarbiya o’z samarasini beradi. Zero, bola eshitganini emas, ko’rganini qiladi.

Darhaqiqat, internet va ijtimoiy tarmoqlar bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlarini, xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko’rsatayotir. Telefon bilan ulg’ayayotgan avlod tarbiyasida yangicha yondashuv zarurligi tobora sezilmoqda. Shu bois, masalaga mutaxassis nigohi bilan qarash, ota-onalarni qiynayotgan savollarga ilmiy va amaliy javob topish maqsadida Profi universiteti o’qituvchisi, psixolog Mushtariy Abdullayeva bilan suhbatlashdik.

– **Ota-onalarning farzand tarbiyasida qiynalayotgani tez-tez qulog’imizga chalinadigan bo’lib qoldi. Bugun ota-onalik avvalgi davrlardagidan nimasi bilan keskin farq qilmoqda?**

– Farzand tarbiyasi murakkab jarayon ekanligini inobatga olsak, har davrning o’ziga yarasha qiyinchiliklari bor ekanining guvohi bo’lamiz. Tan olish kerak, hozirgi davr ota-onalari avvalgilari qaranganda ko’proq xavotirlanishi bejiz emas. Ayni damda bolalarga jismoniy xavflardan ko’ra, ma’naviy xavflar ko’paydi. Ota-onalar ham asosan shu jihatdan farzandlarini asrashga urinishlari kerak. Boisi, ijtimoiy tarmoqlardagi zo’ravonlik, behayollik, iste’molchilik kayfiyati ufurgan “kontentlar”, yolg’on “ideal hayot” targ’iboti axborot oqimi ichida ulg’ayayotgan bolaning ruhiy dunyosini izdan chiqarishi mumkin. Bunday vaziyatda bola o’zini boshqalar bilan solishtirib, o’ziga bo’lgan ishonchi kamayadi, ba’zan esa tajovuzkor yoki befarq shaxsga aylanish xavfi kuchayadi. Shu sababli, ota-onalar farzandi bilan do’stona muloqotni kuchaytirishi lozim. Avvalgi davrlardagidek qattiqqo’llik bolani oiladan uzoqlashtirishi mumkin.

Bola bilan do’stona muloqot, ayniqsa, o’smirlik davri uchun muhim hisoblanadi. Ba’zi bolalarda kech, ba’zilarida erta va noma’lum muddat davom etadigan bu jarayon har bir davrda ota-onadan kuchliroq e’tibor talab qilgan.

– **An’anaviy tarbiya bilan zamonaviy psixologik yondashuvni qanday uyg’unlashtirish mumkin? Ya’ni qadriyatlariga sodiq va zamonaviy fikrlovchi avlodni qanday tarbiyalaymiz?**

– Keling, avval an’anaviy tarbiya va amaldagi tarbiyani ajratib olsak. An’anaviy tarbiya usullaridan otoboblarimizdan o’rnak olishimiz shart deb o’ylayman, xususan, bolalarga ota-onaga hurmatni singdirish, chegaralarni belgilab berish, mehnatga o’rgatish va hokazo. Ammo amaldagi ayrim tarbiya jarayonlarida, bolani juda qattiq nazorat qilish (gipoopeka) yoki haddan tashqari avaylash(giperopeka) kabi holatlar tez-tez uchrab turadiki, zamonaviy psixologik yondashuvlar bunday tarbiya usullaridan allaqachon voz kechgan. Birinchi holatda bolada qaramlik hissi yuqori bo’lib ulg’ayishi mumkin bo’lsa, ikkinchi holatda bola irodasiz va mas’uliyatsiz bo’lishi ehtimoli katta.

Bugun zamonaviy ta’lim-tarbiya usulida bolani jazolash o’rniga uning muqobil variantlari taklif qilinmoqda. Buning uchun ham ota-onalar bola bilan to’g’ri muloqot o’rnatish ko’nikmalarini egallashi lozim deb hisoblayman. Vaholanki, tarbiyaning muhim bosqichi farzand va ota-ona o’rtasidagi samarali muloqot hisoblanadi.

– **Bugun ba’zi ota-onalar farzandini telefonda butkul uzoqlashtirayotgani haqida gapirsa, ba’zilari “davr talabi” deya eng so’nggi rusumli gajetlar bilan ta’minlayotganini aytadi. Qaysi yo’l bola uchun manfaatli?**

– Mutaxassislarning fikricha, 3 yoshgacha bo’lgan bolalarga telefon va televizor butunlay taqiqlanadi. 3 yoshdan katta bolalarga ekran vaqtini yoshiga nisbatlab belgilash lozim. Lekin bugun hatto yoshiga yetmagan bolalarni ham telefon bilan ovutish holatlariga guvoh bo’lyapmiz. Albatta uning zararlari haqida ma’lumotlar juda ko’p. Eng katta zararlari esa bolalarning ruhiyati buzilishi, xavotir, tushkunlik, qo’rquv, agressiya kabi psixologik muammolar yuqtirayotganidir. Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, bugun ota-onaning ustuvor vazifalaridan biri farzandining ruhiyatini sog’lom qilib o’stirish.



Biroq gajetlarni butunlay taqiqlash tarafdori emasmiz. Farzandlariga gajetlardan to’g’ri va unumli foydalanishni o’rgatgan ota-onalar ularning bilim o’zlashtirish tezligi ortayotganini mamnuniyat bilan aytishmoqda. Ya’ni me’yor lozim, va albatta, buni nazorat qilish vazifasi ham avvalo ota-onalar zimmasida.

– **Global kontent (multifilmlar, bloggerlar, ijtimoiy tarmoqlar) bolalarning qadriyatlariga qanday ta’sir qilmoqda? Sizningcha, global dunyoda milliy tarbiya modeli saqlanib qolishi mumkinmi?**

– Milliy tarbiya modeli albatta saqlanib qolishi mumkin. Ammo buning uchun farzandlarimizga yetarlicha vaqt ajratishimiz lozim. Globallashuv jarayonini to’xtatishning iloji yo’q. Ammo uning zararli ta’sirlari oldini olish yoki kamaytirishning iloji bor. Buning uchun bolalarni yangi axborot yoki jarayonlarni filtr qila oladigan darajada ehtiyotkor va tahliliy yondasha oladigan qilib tarbiyalash muhim. Boisi, bugun bolalar dunyoni asosan telefon orqali tanimoqda. Multifilmlar, bloggerlar, trend va ijtimoiy tarmoqdagi “ideal hayot” tasviri ularning ongida qadriyatlarini tez va sezilmas tarzda o’zgartirib yubormoqda. Bola esa buni tanqidiy fikrlab, tahlil qilmaydi; u shunchaki ko’radi, qabul qiladi va takrorlaydi... Bolalarda media-savodxonlikni oshirish mana shu jihatdan o’ta muhim hisoblanadi. Umuman olganda, bugun bolaning ruhiyati, qiziqishlari bilan doimiy hisoblashish zarur.



UNICEFning “Bolalar farovonligi” 2025-yil reytingi hisobotiga ko’ra, bolalar hayoti va farovonligi (ruhiy, jismoniy va ijtimoiy ko’nikmalar) bo’yicha quyidagi davlatlar eng yuqori baholangan:

Niderlandiya – 1-o’rin;
Daniya – 2-o’rin;
Fransiya – 3-o’rin;
Portugaliya – 4-o’rin;
Irlandiya – 5-o’rin;
Shveytsariya – 6-o’sin;
Ispaniya – 7-o’rin;
Xorvatiya – 8-o’rin;
Italiya – 9-o’rin;
Shvetsiya – 10-o’rin.

Shu o’rinda savol yuzaga keladi: imkoniyatlar ko’paygani sayin hayot yengillashishi kerak edi, ammo nega boshqa rivojlangan davlatlarda ham texnologiya, ta’lim va turli resurslar yetarli bo’lsa-da, bolalar ruhiy bosim, ichki yolg’izlik va ijtimoiy beqarorlik hissidan to’liq xalos bo’la olmayapti? Xo’sh, siz-chi, farzandingizga imkoniyatlarni ko’paytirib berish bilan birga, unga ruhiy tayanch, e’tibor va chinakam muloqotni ham bera olayapsizmi?

Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Ma’rifat” muxbiri

Tajriba

Qo'llab-quvvatlash kuchi: uyatchan o'quvchini dadil qilish usullari

Tortinchoq va uyatchan o'quvchilar bilan ishlashda aynan ularga yoqadigan, boshqacha yo'l tutaman. Bu usul natijasida ular xoh doska oldida, xoh katta auditoriyada bo'lsin o'zlarini erkin, bema'lol, hayajonlanmasdan tutishadi.



Ularni norasmiy tarzda(to-vush ohangimni pastlatib) “falonchi(ismini aytib) o'g'lim(qizim), qani, kel-chi yonimga” deb chaqiraman(doska so'zini umuman ishlatmayman).

O'quvchim sekingina, ikkilanib yonimga keladi. Uning o'ng yoki chap tomonida turib, ikkala qo'limni yelkasiga qo'yaman(dalda bo'lganday) va “mavzudan bilganlaringni gapir, o'g'lim(qizim). Men yoning-daman” deyman.

Toki u mavzuni gapirib bo'lma-gunicha qo'llarimni yelkasidan tushirmayman(do'stona munosabat).

Mavzuni gapirib bo'lgach(bilganicha gapirsin, tanbeh bermang), sinfga yuzlanib, “qani o'quvchilar, ..ga(bolaning ismini aytib) kim savol beradi?” deyman va o'quvchimning o'ng yoki chap qo'lidan

ushlab, go'yoki farzandini bog'da sayr qildirib yurgan kishi kabi, uning qo'lini qo'lim bilan orqa-ol-dinga harakatlantiraman(samimiy munosabat. Bunda o'quvchi yanayam “ochiladi”).

Bu holat tabiiyki, o'quvchilarda ham, doskadagi bolada ham qiziqish va xursandchilik, o'ziga ishonch va tetiklik uyg'otadi. Muhimi, o'quvchi o'zini erkin, bosimlarsiz, yaqin kishisining yonida turgandek tutadi, savollarga dadilroq javob bera boshlaydi.

Axir qaysi o'quvchi o'qituvchisining qo'lini ushlab, kamiga sayr qilgan kabi erkalanib harakatlani-shni istamaydi?! Aminman, bu holatdan keyin darsingizda doskaga chiquvchilar soni anchagina ko'payadi. Agar bu usuldan ham ko'nglim to'lmasa, “B” variantga o'taman. O'quvchimni doska yonida baribir gapirtiraman. Hayajonini yengishiga yordam beraman, o'ziga ishonchini uyg'otaman.

– Endi senga tanlov imkoniyatini beraman, bolam. Hozir sinfdoshlaring yoki men senga bitta savol beramiz. Agar o'quvchilarning savoliga javob bersang, “4”, biroq qiynalsang, “3”, javob berolmasang, “2” qo'yaman(lekin “2” qo'ymayman). Savol beruvchi sinfdoshingni esa o'zing tanlaysan. Bu senga bonus. Biroq shavfqatsiz bonus. Chunki anglaganingdek, savolga to'liq va aniq javob bergan taqdiringda ham “5” qo'ymayman. “Yo'q, ustoz,

savolni o'zingiz bering. “5” olmoqchiman desang”, biroz qiyinroq savol beraman, agar javob berol-sang, yoki javobga yaqin kelsang “5”, bordi-yu javob berolmasang “3” yoki “2”(lekin “2” qo'ymayman) qo'yaman. Bunda “4” baho yo'q. Tanla. Bu yog'i lotereya, deyman. Bunday vaqtda aksariyat o'quvchilar sinfdoshlari, yaqin dugonasi, o'rtog'i, partadoshini oson savol berib qolar degan umid bilan tanlaydi. Sinf ham beixtiyor jonlanadi.

Bunday metodik usullarni uz-viy ravishda boshlang'ich sinflardan tortib, 6-7-sinflargacha qo'llasa bo'ladi.

Faqat rasmiy so'zlar – “Falonchayev, doskaga chiq!””, “Tayyor-misan?””, “Qani, gapir!” kabilarni ishlatmasdan, rasmiy munosabatlar qurmasdan, harakat qilish kerak. Natijada o'quvchi “doskaga chiqishdan qo'rqish” sindromini yengib, o'z fikrini do'stlari oldida hayajonlanmasdan, qo'rqmasdan, bema'lol ayta oladigan bo'ladi. Chunki u yonida qo'llab turgan ustoz borligini his qiladi. Imkon boricha o'quvchini familiyasi bilan chaqirmang, ismini ayting. Agar uning ismini erkalab yoki sinfdoshlari chaqiradigan ism(laqab emas) bilan chaqirsangiz, munosabatlar yanada iliqlashadi. Boshqa tomondan o'qituvchi bu usullari bilan sinfni ham jonlantirib, o'quvchilarni o'z faniga qiziqtiradi.

Zero, professional pedagogning bosh maqsadi bola qalbiga yo'l topishdir.

Erkinjon YARASHEV,
“Ta'lim fidokori” ko'krak
nishoni sohibi,
Maktabgacha va maktab
ta'limi a'lochisi

Pedagogdan pedagogga

Boshlang'ich sinflarda kelishiklarni o'qitish jarayonida o'quvchilar ko'pincha qo'shimchalarni chalkashtiradi, ularning vazifasini to'liq anglamaydi yoki amaliy qo'llashda xatolarga yo'l qo'yadi. Bu jarayon mazkur mavzuni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitishni taqozo etadi.

Shu sababli, hozir ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA) talablari asosida o'quvchilarda matnni tushunish, tahlil qilish, fikrni izchil ifodalash va grammatik bilimlarni real nutqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “Kelishiklar” mavzusini o'qitishda faqat nazariy bilim berish emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi, ijodiy va amaliy mashqlar

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida “Kelishiklar” mavzusini o'qitishning samarali texnologiyalari (Ona tili, boshlang'ich sinf)

orqali bilimlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf bosqichida kelishiklar haqida beriladigan dastlabki bilimlar ilmiy soddalashtirish asosida tashkil etilib, o'quvchilarda til hodisalarini kuzatish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, boshlang'ich sinflar ona tili ta'limining asosiy vazifasi – o'quvchilarda to'g'ri, ravon va ongli nutqni shakllantirishdan iborat. Quydagi usullar mavzuni oson o'zlashtirishga xizmat qiladi.

“Xatoni top” metodi

Ushbu metod o'quvchilarga ataylab xato kiritilgan matn, gap, so'z yoki mashq berilib, xatolarni aniqlash, tuzatish va izohlashga yo'naltirilgan interaktiv metoddir. Jarayon o'quvchilarning tahliliy fikrlashi va grammatik savodxonligini rivojlantiradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llanilishi. O'qituvchi o'quvchilarga imlo, tinish belgilari yoki grammatik xatolar mavjud bo'lgan gap yoki matnni taqdim etadi. Masalan: “Men maktabga bordi”.

O'quvchilar xatoni topadi va to'g'ri variantni aytadi: “Men maktabga bordim”. Xatoning sababi izohlanadi (shaxs-son mosligi, kelishik, fe'l shakli va h.k.). Mashq yakunida o'quvchilar o'zlari ham xatoli gap tuzib, almashib tekshirishi mumkin. Metod darsni mustahkamlash, takrorlash va baholash bosqichlarida samarali hisoblanadi.

“Matndan top” metodi

“Matndan top” metodi esa o'quvchilarga berilgan matn asosida aniq til birliklari(so'z, qo'shimcha, gap, grammatik shakl)ni mustaqil ravishda topish va ajratib ko'rsatish orqali o'rganishga yo'naltirilgan interaktiv metoddir.

Metodning “Kelishiklar” mavzusida qo'llanilishi. O'qituvchi matn taqdim etadi va mos o'rinlarga tushirib qoldirilgan kelishiklarni qo'yish topshirig'i beriladi. Boshlang'ich sinfdan kichik hajmdagi matnlar bilan ishlash mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Metodni jamoa yoki juftlikda bajarish mumkin.

Shahnoza AHMADJONOVA,
Yunusobod tumanidagi
265-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Tasodifiy tanlov asosida samarali dars

Dars jarayonida o'qituvchi savolni qanday berishi kerak? U savol orqali o'quvchilarni jalb qila olayaptimi? Savol faqat qo'l ko'targan faol o'quvchilargagina beriladimi yoki barcha o'quvchilar teng imkoniyatga egami?

Tasodifiy tanlov – o'qituvchi o'quvchilarni oldindan tanlamay, har birini istalgan paytda javob berishga undashi mumkin bo'lgan tizimni anglatadi. Bu usul barcha o'quvchilarni doimo tayyor bo'lishga undaydi.

Adolatli yondashuv – har bir o'quvchining darsda ishtirok etishini ta'minlash, faqat faol bolalar emas, balki sustroq o'quvchilarni ham jarayonga jalb qilishni nazarda tutadi.

Mavzuning asosiy g'oyasi: darsda savol berish shunchaki baholash vositasi emas, balki barcha o'quvchilarni mavzuni o'zlashtirish va fikrlashga jalb qiladigan samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatishdir.

Bu usulni qo'llashda “Wheel of names, wheel of questions, wheel of gifts” dasturidan foydalaniladi. Unda bitta g'ildirakda barcha o'quvchilar ismlari, ikkinchi g'ildirakda savollar ro'yxati, uchinchi g'ildirakda javob berganlar uchun o'quv qurollari va kitoblardan iborat sovg'alar tasvirlanadi. Bu interaktiv metodning asosiy qoidasi shuki,

barcha g'ildiraklar baravariga aylantiriladi va natijada bir vaqtning o'zida o'quvchining ism-familiyasi, javob berishi kerak bo'lgan savoli va olishi mumkin bo'lgan sovg'asi ekranda ko'rinadi.



Asosiysi, o'quvchilar mavzu va uning rejalarini yozish bilan birga, ushbu mavzu bo'yicha qo'yilgan savollarni ham ko'chirib olishadi hamda dars davomida ularga javoblarni ham yozib borishadi, negaki savol tasodifan kimga tushishi noma'lum.

Bu usul nafaqat o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish, balki ularning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun ham nihoyatda kuchli vositaga aylanishi mumkin.

Farhod HALIMBETOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti katta o'qituvchisi

O'zbek adabiyoti tarixida shoira va adibalar hayoti, ijodi va adabiy merosini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sharq adabiyoti tarixida Robiya Balxiy, Oysha Samarqandiy, Mahastiy Xo'jandiy(Ganjaviy), Podshohxotun, Duxtariy, Mehri Hiraviy, Bibicha, Ofoqbegim Jaloyir, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Komilabegim, Ulouj, Munira, Zaifiy, Bibiotun, Iffatiy, Kishjonbika, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Anbar Otun, Dilshodi Barno, Bibifazilat, Rizvon Xonim, Hadiya Bibi, Fayzi Bibi, Muslima Bibi, Rizvon kabi qalam sohibalarining ijodidan namunalar tazkira hamda to'plamlarda aks etgan hamda o'zbek, fors-tojik, ozarboyjon, rus va yevropalik olimlar tomonidan ma'lum ma'noda tadqiq qilingan. Ular nomi tilga olingan tazkira va kitoblarni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

MAHZUNA

1. Aynan shoirlar ijodiga bag'ishlangan tazkira va kitoblar. Bunga misol sifatida Fahri Hiraviyning "Javohir ul-ajoyib" tazkirasini keltirsak, unda 31 nafar shoira haqida alohida fiqra yozilgan va ular ijodidan g'azal, to'rtlik, bayt shaklida namunalar keltirilgan. Toji Usmon "Bistu se adaba" kitobida fors-tojik tilida qalam tebratgan 23 nafar shoira to'g'risida ham ma'lumot yozgan, ham she'rlarini kiritgan. To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoirlari" kitobida 30 nafardan ziyod shoira yodga olingan va she'rlaridan namunalarni o'qish mumkin. Olim "O'zbek shoirlari" antologiyasini tuzgunga qadar besh yillik izlanishlari samarasi sifatida shoira Bonu hayoti, ijodini tadqiq etib, "Bonu" kitobini yozgan. Kitobda Bonu shajarasini yoritgan, g'azallarida qo'llangan qiyin so'zlar lug'atini ham tuzgan. Tojikistonlik taniqli olim E.Shodiyev "Shoirahoi toinqilobii Xo'jand" kitobida "Bulbuloni Xo'jand" so'zboshisi bilan Munisayi Maxasti, Qambarxoni Xo'jandi, Muazzamxon, Muattarxon, Bibifazilati Xo'jandi kabi o'zbek va tojik tilida ijod qilgan shoirlar haqida ma'lumot bitgan hamda "Namunaho az ashkori" deb ular ijodidan turkum she'rlar tamsil qilganki bu maqbul usul o'quvchiga ularning mahorati xususida to'laroq tasavvur beradi. Mahbuba Qodirovaning "O'zbekistonning mashhur shoirlari" risolasida 36 nafar qalam sohibalari tilga olingan, biroq shoirlar ijodidan namunalar berilmagan. Mahbuba Qodirova yana "Shoira Muazzamxon" nomli kitob yozgan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xo'jandda tug'ilib, Jizzaxda yashab, ijod qilgan shoira Muazzamxon haqida hikoya qilinadi. Kitobning "Hayot sahifalari", "Ijodining rangin olami" fasllarida Muazzamxon hayoti, ijodi tahlil qilingan bo'lsa, "Muazzamxon ijodidan namuna" bobida esa shoiraning 37 ta g'azal, Muzaffarxon sha'niga yozilgan 4 ta muvashshah, 1 ta muxammas, tojik tilida yozgan 2 ta g'azali o'zbekcha tarjimasi bilan kiritilgan. Matnshunos sifatida u mamalakatimizda Nodira, Uvaysiy(Amir Umarxon devonini ham) devonlari-

ning ilk davriy nashrlarini amalga oshirgan fidoyi, zahmatkash olim hisoblanadi. "Piskent bayoz"da o'n nafar shoira haqida ma'lumot berilib, she'rlaridan namunalar kiritilgani tahsinga loyiq.

2. Adabiy xarakterdagi tazkiralarda ayol ijodkorlarga oz bo'lsa-da diqqat qaratilgani kishini quvontiradi. Bunga, birinchidan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"ini misol qilib keltirsak, tazkirada Temuriylar davri madaniy muhitida ijod qilgan shoirlar – Mehri Hiraviy va Bibichayi Munajjima tilga olingan. Ikkinchidan, Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" tazkirasida bo'lib, kitobning "Mavloni Qobuliy Buxoriy" fiqrasida Ulouj o'tli shoira yodga olingan va uning Qobuliy Buxoriy bilan fors-tojik tilida mushoira qilib she'r aytmoqchi bo'lgani, ammo majlis ahli Qobuliy Buxoriy badihasini ortiq ko'rib, Ulouj badihasining yerga urilgani bilan bog'liq voqea yozilgan. Shoira bayti tamsil qilingan va fors tilida she'rlar yozganiga urg'u berilgan. Uchinchidan, Po'lotjon Domulla Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asari bo'lib, unda Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi Qo'qon adabiy muhitida samarali ijod qilgan shoirlar borasida alohida fiqra usulida ma'lumot bitilgan va ular ijodidan namunalar berilgan. Ma'rifatparvar Domullo "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" kitobida, ham tazkirada alohida fiqra yozgani kabi Nodira, Mahzuna, Uvaysiy haqidagi ma'lumotlarni to'ldirgan va Rizvon Xonim, Hadiya Bibi, Fayzi Bibi, Muslima Bibi, Rizvon kabi shoirlarning hayoti va ijodi xususida ma'lumot bitgan va she'rlaridan tamsil qilgan. To'rtinchidan, E.Ochilov "Ming bir ruboiy" kitobida lirik turning ruboiy janrida ijod qilgan shoirlar ruboiylarini mahorat bilan tarjima qilgan. Jumladan, fors tilida ijod qilgan 10 dan ziyod shoirlar haqida qisqa ma'lumot va ular yozgan ruboiylardan namunalar keltirgan, bu usul kitobning qimmatini yanada oshirgan.

Biz yuqorida tilga olgan qalam sohibalari qatorida nuqtadon va nozik-fahm shoira Mahzuna hayoti va ijod



olamiga to'xtalsak. Mahzuna XIX asrning boshlarida Qo'qon adabiy muhitining taniqli shoirlaridan biri hisoblanadi. U Amir Umarxon, Nodira, Muhammad Alixon, Fazliy Naman-goniy, Gulxaniy, Uvaysiy bilan zamondosh bo'lgan. Sohibdevon shoira sanaladi, biroq devoni topilgan emas. Po'lotjon Qayyumov shoira devoni xususida tazkira va Qo'qon tarixi va adabiyoti tadqiq qilingan kitobida yozgan, bu haqda o'rni bilan to'xtalamiz. Mahzuna lirikaning g'azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, munozara janrlarida ijod qilgan. Davr ruhi bilan hamnafas bo'lgan zakkiy shoira o'zbek, fors-tojik tillarida qalam tebratgan. U Qo'qon adabiy muhitida faol va dadil shoira bo'lgan, atrofdagilar bilan muloqotga ilmi, badiiy tafakkuri yetgani uning Fazliy Namangoniy bilan aytgan mashhur munozarasida yaqqol seziladi.

Shoira Mahzuna Qo'qon shahri Qatag'on dahasining "Mullo Boshmon" nomli mahallasida tavallud topgan. Otasi shu mahalla masjidining imomi Mulla Boshmon Oxund bo'lib, ma'rifatli inson edi. Onasi to'g'risida ma'lumot bitilmagan. Hayotda farzand tarbiyasi va ta'limini muhim ish deb bilgan Mullo Boshmon qizi Mahzunaning savodli, ilmi bo'lishida jonbozlik ko'rsatganiga qaraganda, u turmush o'rtog'ining ham ma'rifatli, fozila ona bo'lishiga befarq bo'lmagan. Mahzuna ilk savodini otasi qo'lidagi chiqargan. U qizining aqli, qalbi, salohiyatini to'g'ri anglab, ijodga yetaklagan. Mullo Boshmon do'sti Mullo Ergash Xalifaga xursand bo'lib qizining Navoiy, Fuzuliy o'qib, juda zavqlangani to'g'risida faxrlanib gapirib bergan. Bu haqda ma'rifatparvar Po'lotjon Qayyumiy shunday xabar yozgan: **"Butun savod ila umumiy tarbiyani otasidan o'rganmishdur"** (P.Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Toshkent: Qo'lyozmalar instituti nashriyoti, 1998.155–160-betlar.) Yoki **"Otasidan arabcha ilmi sarf-u nahv qoidalarini o'rgangan va nihoyat olim, fozila bo'lib Navoiy g'azallariga maftun va shunga o'xshatib yozishga havaskor, ni-**

hoyat Xo'qand xotin-qizlaridan yetishgan bir shoiradir" (Qayyumov P. Xo'qand tarixi va uning adabiyoti. Toshkent: Tamaddun, 2011. 159-bet.). Yana Mulla Fazliy shoiraning savodi, ijodiy ongi balandligini sezib, tazkiraning bir o'rnida "fozilning qizi" deb e'tirof etsa, mushoirada esa bilib-bilmaslikka olish she'riy san'ati – tajo-huli orifonadan foydalanib "Ustozing kim?" degan savolni bergan. Mahzuna ilm ahliidan saboq olmagan, maktab-dor otin huzurida kitob ko'rmaganini aytib, ustoz otasi ekaniga ishora qilgan:

Fazliy:

*Mundog'kim nuktadonsan,
kim erdi ustoding,
Oy kasbi nur qilolmas
to oftob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Ko'b nahlrlar yig'ilsa
daryoyi pur dur o'lg'ay,
Ilm ahlidin bu miskin
bir shayx-u shob ko'rmay.*

Qizining savodi va ijodiga ko'rsatgan tashabbusi, g'ayrati sabab Mullo Boshmon ma'rifatparvar ota sifatida hurmatga loyiq. Mahzuna tug'ilib, voyaga yetgan mahalla Qo'qonning bahavo, tabiati xushmanzara, dilni xush qiladigan bog'lari, tiniq oqar suvlari, ob-havosi tanga da'vo, tufrog'i unumdor, mevali va manzarali daraxtlari bilan Farg'onada mashhur bo'lgan. Go'yo Muqimiy "Sayohatnoma" asarida yuksak estetik zavq bilan tasvirlagan Roshidon qishlog'ini eslatadi, desak mubolag'a bo'lmas. Manbalarda yozilishicha, Mahzuna mahallasiga yaqin hududda shoir Mirzo Qalandar Mushrif kitobdor va uning o'g'li Mirzo Ayyub kitobdor, Hudoyquli Bahodir, Muhammad Soleh Oxund, Muhammad Sharif Gulxaniy kabi qalam ahli hamda ma'rifatparvarlar yashab ijod qilgan. Bu holat nafaqat Qo'qonda, balki qishloqlarda ham adabiy maktablar shakllanganidan darak beradi.

(Davomi 10-11 betlarda.)

Nuqtayi nazar

Robotlar oʻrnimizga orzu qilmoqda

“Men texnologiyadan qoʻrqmayman. Texnologiya tufayli insonlar bir-biri bilan gaplashishni va mustaqil fikrlashni toʻxtatib qoʻyishlaridan qoʻrqaman.

Albert EYNSHTEYN

Bugun shunday tarixiy nuqtadamizki, sivilizatsiya davomida ilk bor inson oʻzining eng oliy neʼmati – mustaqil fikrlash huquqi va tanqidiy tahlil qobiliyatini ixtiyoriy ravishda “temir mantiq” hamda sovuq algoritmlar hukmiga havola qilmoqda. Bu raqamli inqilob haqiqatan bizni yuksaltiryaptimi yoki shunchaki cheksiz maʼlumotlar oqimining passiv, hissiyotsiz kuzatuvchisiga aylantirib qoʻydi?

Harvard universitetining tajribali neyrobiologlari Diana Tamir va Jeyson Mitchell oʻtkazgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot va “layk” kutish miyamizning oʻz-oʻzini ragʻbatlash tizimi(nucleus accumbens)ni xuddi narkotik moddalar kabi qoʻzgʻatadi. 2012-yildayoq aniqlangan ushbu achchiq haqiqat hozirgi paytda “algoritmik gipnoz” poydevoriga aylangan. Achinarli jihati shuki, biz muddatidan avval “Oʻzgaruvchan nisbat”(Variable Reward) tamoyili qurboni boʻlishga ulgurdik: keyingi safar qanday maʼlumot yoki “layk” olishimizni bilmaganimiz uchun miyamiz goʻyoki kazinodagi oʻyin avtomatiga bogʻlangandek ekranlarga yopishib qolmoqda.

Bundan tashqari, bugungi tezkorlik sharoitida “algoritmik gipnoz” shunday murakkab bosqichga koʻtarildiki, ertalab uygʻonishingiz bilan smartfoningiz sizga nima oʻqishni va kim bilan doʻstlashishni buyura boshladi. Statistik maʼlumotlarga qaraganda, YouTube videolarining 70 foizi foydalanuvchining xohishi bilan emas, balki algoritim tavsiyasi bilan koʻriladi. Yaʼni tanlov erkinligimizni allaqachon boy berganmiz!

Fikrimni bu dahshatli oqimning qurbonlaridan biri yaqin dugonam Mastura misolida ochiqalayman. Ilgari uning koʻzlarida ijod uchquni yonardi, hayotni butun borligʻi bilan his qiladigan, har bir satrini qalb xotirjamligi ila yozadigan isteʼdodli qiz edi. Ayni lahzalarda esa Masturaning bashariyatni hayratda qoldira oladigan qarashlari soʻnib qolgan, u oʻz xayolot olamini allaqachon sunʼiy intellektning maʼnosiz tushunchalariga topshirib qoʻyibdi. Bir kuni qorongʻi xonada smartfon qarshisi-da oʻtirganini koʻrib, bu oʻtmishdagi quvnoq dugonammi, deya chuqur oʻyga toldim. U hatto oʻz hislarini yozish uchun ham botlardan foydalalanayotgan edi. “Mastura, axir bu sening soʻzlaring emas-ku?” deya soʻraganimda, u menga boʻshliqqa tikilgandek qarab: “Oʻzimning oʻylashga aqlim yetmayapti, u men uchun hammasini tez va oson hal qilaypti” dedi. Uning bu gaplari shunchaki charchoqning natijasi hisoblanmasdan, oʻzlikning “oʻrgimchak toʻri”ga hech qanday kurashsiz ilinib qolishi edi goʻyo. Oʻsha lahzada yaqin dugonamning sunʼiy dunyo qaʼriga bevosita shoʻngʻib, misli koʻrinmagan hissiy profilga aylanib borayotganining guvohi boʻlib, yuragim muzlab qoldi.

Dahshatlisi, hozir zamonaviy insonning diqqatni jamlash muddati oʻrtacha 8–12 soniyaga tushib qolgan, bu, hatto, akvariumdagi oltin baliqchanning diqqatidan ham kam! Raqamli vositalar bizni chuqur mulohaza yuritishdan mahrum qilib, “klipcha fikrlash”ga oʻrgatdi yoki domlam aytganidek, “tiktokkalla”ga aylantirib qoʻydi.

Shu oʻrinda, “Google”ning etikasi boʻyicha sobiq mutaxassis Tristan Xarris aytganidek: “Agar mahsulot uchun pul toʻlamayotgan boʻlsangiz, demak, mahsulot – bu sizning oʻzingizsiz”. Biz hayotimizni yengillashtiryapmiz deb oʻylab, aslida ichki yaratuvchanlik quvvatimizni algoritmlar uzoqasiga aylantirib yubordik. Ammo mashina yaratgan sanʼatda na ruh, algoritim yozgan matnda na yurak urishi seziladi.

Shu sababli, bugun uygʻonish va raqamli okeanda gʻarq boʻlayotgan “maʼlumotlar yigʻindisi” emas, balki tirik tafakkur egalari ekanligimizni isbotlash uchun kurashishimiz kerak. Psixolog B.F.Skinner ogohlantirganidek: “Kompuyterlar xavfli ekanligi ularning juda aqilligidan emas, balki biz ularning gapiga soʻzsiz ishonib, oʻz aqlimizni ishlatmay qoʻyishimizdadir”. Hozir tanlov qarshisida turibmiz: yo algoritmlar chizib bergan “qulay raqamli qafas”da yashashda davom etamiz yoki oʻz tafakkurimiz jilovini qaytadan qoʻlga olamiz.

Unutmang, robotlar millionlab maʼlumotlarni tahlil qila olar, lekin ular hech qachon “nima uchun?” degan savolni bera olmaydi. Insoniyatning buyukligi – uning xayolotga sigʻmas orzularida va hech qanday kodga boʻysunmaydigan erkin irodasidadir. Shunday ekan, ekraningizni oʻchiring, atrofga boqing va oʻzingiz mustaqil ravishda fikrlashni davom ettiring. Zero, ertaga fikrlash rasman taqiqlanishidan oldin, bugun hali kech emas!

Muxlisaxon HASANJONOVA,
OʻzJOKU talabasi

Oʻy

Toshkent viloyati Boʻstonliq tumanida joylashgan Tovoqsoy togʻi oʻzining cheksiz sarhadlari, toshdan-toshga urilib oqadigan tiniq suvlari va choʻqqilarining eng yuqori qismidagi goʻzal sharsharasi bilan har doim ijodkor va turistlar diqqatini jalb etib kelgan.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining Tasviriy sanʼat fakulteti 1-bosqich talabalari ilk plener(rassomlarning tabiat qoʻynida, ochiq joyda turib rasm chizish usuli) sayohatini ayni shu maskandan boshladilar.

Tasviriy sanʼat olamida etyud safarining asosiy maqsadi rang olish, eskiz yaratishdir. Bir tabiat manzarasidan nabroska ishlash uchun odatda 30 daqiqacha vaqt talab etiladi. Bu vaqt oraligʻida quyosh harakati bir yerda toʻxtab turmaydi. Bir nuqtadan boshqa biriga harakatlanishi orqali nur tushayotgan joy bilan soyal

Plener va etyud rassom uchun nega kerak?

yerning ranglar jilosi sezilarli darajada farq qiladi. Rassom ana shu holatdan kichik bir eskiz chizib oladi. Soʻng uni ustaxonada planshetga koʻchiradi. Birgina etyud orqali yuzlab sanʼat asarlari yaratiladi.

Ijodiy safarlar institut faoliyatining asosiy qismi sanaladi. Ekskursiya talabalarga nafaqat ijodiy yangiliklar, balki bir-biri bilan yaqindan tanishish, muloqot qilish, oʻz dunyosini boʻlishish imkoniyatini ham berdi.

Dastlab yoʻl davomida avtobus ichidagi sukunat biroz zerikarli tuyuldi. Biroq talabalar manzilga yetib borishi hamon suhbatlar, kulgi va ijodiy muhit hukm sura boshladi. Tepalikka koʻtarilish jarayoni deyarli bir soat vaqt talab qildi. Rejaga koʻra, togʻning yuqori qismidagi sharsharaga yetib borilishi kerak. Ammo talabalar yoʻl-yoʻlakay toʻxtab, tabiat quchogʻida ijod qilishni boshlab yubordilar.



Ha, rassom tabiatni emas, tabiatning oʻzi rassomni tanlaydi. Bu ijod egalari uchun tanish ruhiy kechinma.

Koʻpi bilan ikki-uch soat davomida yosh rassomlar oʻz ijodiy ishlarini yakunlashdi. Shundan soʻng birgalikda turli bahoriy oʻyinlar oʻynaldi, koʻklamning ramzi – varraklar uchirildi.

Maʼlumki, erta tong, quyosh tik koʻtarilgan palla hamda kun botish chogʻi tabiatda oʻziga xos, takrorlanmas rang uygʻunligi namoyon boʻladi. Bunday holatlarni auditoriyada, telefon yoki boshqa tasviriy manbalarga qarab toʻliq his etish, aks ettirish mushkul. Shu bois plener va etyud mashgʻulotlarining asosiy maqsadi – borlikni bevosita kuzatish, yorugʻlik va ranglar uygʻunligini jonli muhitda his qilish hamda rangtasvir boʻyicha amaliy tajriba orttirishdan iboratdir.

Umidaxon GʻANIYEVA,
OʻzJOKU talabasi



Taassurot

Bugungi kunda jurnalistika sohasi tez oʻzgarayotgan, doimiy izlanish va moslashuvni talab qiladigan kasblardan biriga aylangan. Ayniqsa, talaba jurnalistlar uchun bu yoʻl ilk qadamdanog sinovlarga boy boʻlishi tabiiy. “Diplom boʻlsa ish topish oson” degan qarash allaqachon eskirdi. Hozir talabalik davrining oʻzi ishga joylashish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

Talaba jurnalist ishga qanday joylashadi?

Talabalik davridayoq ishga joylashishda talaba jurnalist avvalo nazariy bilim bilan cheklanib qolmasligi kerak. Amaliyot esa kasbning asl mohiyatini ochib beradi. Shu sababli koʻpchilik muvaffaqiyatga erishgan jurnalistlar faoliyatini aynan talabalik payti boshlaganini koʻrish mumkin. Mahalliy sayt, telekanal, radio yoki tahririyatlarga borib amaliyot oʻtash – bu katta mahorat maktabi vazifasini oʻtaydi.

– 1-kurs paytimda kichik internet nashrida amaliyot oʻtaganman, – deydi OʻzJOKU talabasi Bahora Vahobova. – Dastlab tarjima qilgan kundalik yangiliklarim saytga joylashtirib borildi. Vaqt oʻtishi bilan menga kichik reportajlar tayyorlashni topshirishdi. Oradan bir necha oy oʻtgach rasman ishga qabul qilishdi.

Aytish kerakki, dastlab kichik ishlardan boshlangan mehnat katta imkoniyatlarga eshik ochadi. Shuningdek, bugungi ish beruvchilar diplomdan koʻra real ish namunalariga koʻproq eʼtibor qaratgani bois talabaning oʻzi yozgan maqola, reportaj va interv-yularni, kichik blog yoki ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida chop etilgan materallarini jamlab borishi shaxsiy portfoliosini boyitishda muhim jihat hisoblanadi. Jurnalistika – faqat yozishni bilish emas, balki odamlar bilan ishlash sanʼati hamdir. Bundan tashqari, aloqa doirasini kengaytirish tahririyat xodimlari, ustoz va hamkasblar bilan yaxshi munosabat oʻrnatgan talaba ham koʻpincha yangi ish oʻrinlaridan birinchi boʻlib xabardor boʻladi. Baʼzan oddiy tanishuv ham kelajakdagi ish taklifiga sabab boʻlishi mumkin.

Yana bir eʼtiborli jihat – oʻz ustida ishlash. Bugungi jurnalistdan faqat matn yozish emas, balki foto, video, montaj va hatto SMM koʻnikmalari ham talab qilinmoqda. Koʻp qirrali talaba boshqalarga nisbatan ustunlikka ega boʻladi. Chunki zamonaviy tahririyatlar universal xodimlarni qadrlaydi.

Albatta, bu yoʻl har doim ham oson emas. Baʼzan yozgan materialingiz eʼtiborsiz qoladi, baʼzan esa umuman javob ham kelmaydi. Shunday paytlarda koʻpchilik taslim boʻlishni oʻylaydi. Lekin aynan sabr va davomiy harakat bu kasbda eng katta ustunlik beradi.

Aytish kerakki, talaba jurnalist uchun ishga joylashish – bu yakuniy bosqich emas, balki talabalik davridan boshlangan uzluksiz jarayon. Kimki erta harakat qilsa, oʻz ustida ishlasa va imkoniyatlardan toʻgʻri foydalansa, u albatta jurnalistika olamida oʻz yoʻlini topadi.

Maftuna JOʻRAYEVA,
OʻzJOKU talabasi

Shapaloq

Yashasin fast food!

Darsdan keyin kursdoshlarim bilan koʻchada fast food yedik. Oshqozonimga yoqmad shekilli, ikki kun isitmalab, narsa yeyolmay yotdim. Bu holatimni koʻrgan xonadoshim qoʻyarda-qoʻymay tez yordam chaqirdi. Ular olib ketamiz deb qolsa boʻladimi. Mayli, dedim oxiri. Qayerga deb ham soʻramabman. Borib tez yordam mashinasidan tushib qarasam, oʻzimga oʻxshagan bemorlar oldiga kelib qolibman.

Kirishim bilan Buxoro shevasida soʻzlayotgan opa shaxsim, holatim haqida maʼlumotnoma toʻldirdi. “Besh kun yotasiz”, dedi-da, yonidagi oq xalatl xolaga qarab, “Shamshodbek shifoxonani toʻldirishga hissa qoʻshaman deb kelibdilar”, dedi.

Qoʻlimga bir parcha qogʻoz berib, “4-etajga chiqing” dedi. Men-ku yoshman, amallab chiqdim, lekin yoshi katta bemorlar holati ogʻir boʻlsa chiqquncha hushidan ketsa kerak. Chiqishim bilan bir ayol “Kasalgayam oʻxshamaydi bu”, deb kutib oldi.

Tavba, nima, men zerikkanimdan keldimmi? Keyin palatamni koʻrsatdi. Bu bino respublika darajasidagi “bol-nitsa” ekan. Ammo holati... eh-he! Koʻrinishidan SSSR qulashidan oldin taʼmirlanganga oʻxshaydi. Taxmininiga salgina yaqinlashibman, men bilan palatadosh Qoʻchqor amaki bundan 33 yil oldin ham shu yerda davolanagan ekan.

Xonalar sovuqligidan hamma qalin ustki kiyimida uxlayapti. Chiroqlar nosozmi deyman, lipillashidan isitmasi yoʻq odamning ham boshi aylanadi. Hojatxona va yuvinish xonasini gapirmasa ham boʻladi. Hamma joydan kelayotgan xlor hididanmi yoki oshqozonimdagi muammo sababmi, bilmadim, koʻnglim aynidi. Yostiqlning ichida paxtasi yoʻq shekilli, zoʻrgʻa uxladim.

Ert tongda bir hamshira turtkilab uygʻotdi.

– Ukolga chiq.
Eslasam haligacha oʻsha qoʻlim

Shamshodbek MASHARIPOV,
OʻzJOKU talabasi

Taassurot

Amirsoy tomon yoʻl: togʻ bagʻrida bir kun

Tongda Toshkentdan chiqib, Boʻstonliq tumani tomon yoʻl olamiz. Shahardan uzoqlashgan sari binolar kamayib, yoʻl chetlarida daraxtlar koʻpayib boradi. Gʻazalkentdan oʻtgach, yoʻl torayib, togʻlar asta-sekin yaqinlasha boshlaydi.

Amirsoy dam olish maskaniga olib boruvchi burilishga yetganda, oʻng tomonda katta koʻrsatkich taxtasi turibdi. Shu burilishdan keyin yoʻl biroz koʻtariladi. Mashinadan tushgan zahoti togʻ havosi seziladi: salqin, toza va musaffo. Atrofda baland archa daraxtlari, pastroqda esa soy oqib yotibdi.

Yoʻl boʻylab yurganingizda chap tomonda toshloq qiyalik, oʻng tomonda esa jarlik koʻzga tashlanadi. Oldinga qarab yurgan sari odamlar kamayib, atrofda faqat shamol va suvning shovqini eshitiladi. Biroz yuqoriroqda esa kichik ochiq maydon bor, bu yerda sayyohlar toʻxtab dam oladi va suratga tushadi.

Mutaxassislar maʼlumotiga koʻra, Amirsoy hududi soʻnggi yillarda mashhur togʻli dam olish maskanlaridan biriga aylangan. 2024-yili bu yerga 700 mingga yaqin sayyoh tashrif buyurgan, 2025-yilda esa bu koʻrsatkich 800 mingdan oshgan. Oʻrtacha hisobda oyiga 60–70 mingga yaqin odam bu hududga dam olish uchun keladi.

Amirsoy shahar shovqinidan uzoqlashib, tabiat bagʻrida dam olishni istaganlar uchun qulay maskan hisoblanadi. Shu sababli bu goʻzal goʻshada kamida bir kun boʻlsangiz ham ruhiyatingiz, ham jismingiz huzur oladi.

Malika BEVUTOVA,
OʻzJOKU talabasi

Talabchan ustoz shogirdni qulay sharoitda emas, balki sinovlar, savollar va bahslar orqali yetuklikka olib chiqadi.

Alisher Azizxoʻjayev ham ana shunday ustozlardan biri sifatida ilmiy muhitda oʻziga xos maktab yaratgan inson edi. Uning rahbarligidagi ilmiy jarayonlar oddiy rasmiyatchilikdan iborat emas, balki chinakam ilmiy bahs, fikr almashinuvi va intellektual kurash maydoniga aylangan. Ustoz uchun eng muhim mezon – ishning tashqi koʻrinishi yoki rasmiy jihati emas, balki uning ilmiy asoslanganligi va shogirdning tayyorgarlik darajasi edi. Shu sabab uning rahbarligidagi ilmiy kengash majlislari koʻpincha keskin savol-javoblar, tanqid va chuqur tahlil bilan oʻtardi. Har bir dissertant oʻz ishini himoya qilishdan oldin bir necha bosqichli sinovlardan oʻtishi kerak edi. Baʼzi hollarda dissertatsiyalar qayta ishlashga

Ustozning talabchanligi – muvaffaqiyat va ilmiy yetuklik asosi

yuborilar, baʼzan esa keskin tanqidlar bildirilardi. Ammo bu holat hech qachon salbiy muhit yaratmagan, aksincha, ilmiy sifatni oshirgan. Chunki bu jarayon shogirdlarni yuzaki yondashuvdan uzoqlashtirib, chuqur tahlilga oʻrgatgan. Ustozning fikricha: **“Chiroyli rasmiylashtirilgan dissertatsiya – bu ishning yarmi, asosiy dissertant tayyor boʻlishi kerak!”**. Bu gʻoya ilmiy ishda tashqi shakl emas, balki ichki mazmun va tayyorgarlik hal qiluvchi ekanini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, u shogirdlarini keng fikrlashga undagan: **“Haqiqiy olim har qanday savolga tayyor turishi, nafaqat oʻz mavzusini, balki ixtisoslik doirasidagi umumiy kontekstni ham tushunishi kerak”**. Bu yondashuv shogirdlarni tor doiradagi mutaxassis emas, balki keng ilmiy tafakkurga ega olim sifatida shakllantirgan. Ustoz ilmiy bahs va himoya jarayonini oddiy rasmiy tadbir emas, balki intellektual sinov sifatida koʻrgan. Shu ruhda u shogirdlariga murojaat qilib shunday degan: **“Jang qilishga tayyor boʻling, lekin bilingki, bilim va haqiqat doimo gʻalaba qozonadi”**. Bu uch tamoyil – mazmun ustuvorligi, keng ilmiy tafakkur va haqiqat uchun kurashga tayyorlik Alisher Azizxoʻjayev ilmiy maktabining asosini tashkil etgan. Ustoz talabchan boʻlsa-da, uning bu yondashuvi ortida katta maqsad – shogirdni kuchli qilish maqsadi turgan. U hech qachon yuzaki yoki tayyorlanmagan ishni qabul qilmagan, har bir mavzuga chuqur yondashishni talab qilgan. Shu bilan birga, u adolatlil va insonparvar ustoz ham edi. Shogirdlar salohiyatini tezda sezib, ularni qoʻllab-quvvatlashni ham bilardi.

Alisher Azizxoʻjayev rais boʻlgan ilmiy kengashda dissertatsiyasini himoya qilgan Muqaddas Ahmedova oʻz fikrini ochiq va qatʼiy tarzda bildiradi, hatto tajribali professorning tanqidiga ham javob qaytaradi. Bu holat baʼzilar tomonidan ortiqcha jasorat, professorlarga nisbatan esa hurmatsizlik sifatida qabul qilingan boʻlsa-da, ustoz buni boshqacha baholaydi. Bu harakatni isyon emas, balki ilmiy haqiqatni himoya qilishga boʻlgan intilish sifatida koʻradi va yosh tadqiqotchini qoʻllab-quvvatlaydi. Unga “Kelajakda albatta doktorlik dissertatsiyasini himoya qilaman deb soʻz bering!” deydi. Bu soʻzlar Muqaddas uchun umrbod esda qolarli motivatsiyaga aylandi. Bugun u oʻz soʻzida turib, yuridik fanlar doktori, professor sifatida Jamoat xavfsizligi universitetida faoliyat yuritmoqda. Umuman olganda, Alisher Azizxoʻjayevning talabchanligi shogirdlarda faqat bilim emas, balki qatʼiyat, mustaqil fikrlash, tanqidga bardosh va oʻz pozitsiyasini himoya qilish kabi muhim fazilatlarini shakllantirdi. U har bir shogirdini oddiy ijrochidan mustaqil fikrlovchi olimga aylantirishga intildi. Bugungi kunda uning shogirdlari turli ilmiy va amaliy sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani ham aynan shu talabchan yondashuv natijasidir. Chunki ilmda yengil yoʻl yoʻq, faqat mehnat, izlanish va qatʼiyat bor.

Nodira OBIDOVA,
TDYU talabasi

(Davomi. Boshi 7-betda.)

Mahzuna otasidan diniy ta'lim ham olgan, bu holat uning tasavvufiy ruhda yozgan "Saboga parvona" she'rida va Fuzuliy g'azaliga Maxtumquli, Uvaysiy, Xijlat kabi javobiya usulida yozgan "oshiq bo'lmi-sham" radifiga qurilgan "Muxammasi Mahzuna" muxammasida o'z ifodasini topgan. Shoiri ijodini yaxshi o'rgangan Po'lot jon Qayyumov bu xususida shunday yozadi: "...diniy ruhda tarbiyalangani holda ash'orlarida Xoja Ahmad Yassaviyga emas, Alisher Navoiyga ergashmish shoiradir. Adabiy sohada Navoiy, Jomiy-lardan bahralanmish ekani ko'rinadur". Shoiraning Jomiy, Navoiy va Fuzuliy ijodini yaxshi o'qib-o'rgangani, ayniqsa, uning uch daho shoir lirikasidan olgan adabiy ta'sirni, birinchidan, u she'rlarida qo'llagan Yusuf, Sulaymon obrazi va baytul xazon(g'am uyi), may, timsollarida, ikkinchidan, mahorat bilan ishlatgan talmeh, tamsil, takror, murojaat kabi she'riy san'at hamda qofiya va radiflarda yoki ma'lum ma'noda olg'a surilgan ezgu fikr, dadil g'oya talqinida, so'z bilan tasvir, manzara yaratishda yaqqol ko'rinadi.

Mahzunaning turmushi ko'ngildagidek kechmagan, baxti qattiq kelgan, agar mumtoz shoirilar so'zi bilan ayt-sak, baxti xobolud, baxti siyoh bo'lgan. Mullo Fazliyning tazkirada yozgan ma'lumotiga ko'ra, shoiri o'ziga nomunosib bir nodon kishiga turmushga chiqqan. O'zi ham bu to'g'rida baxtsiz va dili xun ekanini Mullo Fazliy bilan aytgan mushoirada, "oshiq bo'lmi-sham" radifiga qurilgan muxammasida ko'ngli o'ksib bayon qilgan. Fazliy ham "Majmuot ush-shuaro"da ko'rsatiladur" deb eslatib o'tgan.

O'rganishimizga ko'ra, Mahzuna va Qo'qon xoni saroyida yaratilgan adabiy muhit masalasi xususida fikrlar xilma-xil bo'lib, uning ijodidan saroy adabiy muhiti, xususan, Umarxon va Nodiraning bexabarligi haqida turli bahs-u munozaralar mavjud. Xususan, Po'lotjon Qayyumov tazkira va tarixiy kitobida quyidagicha javob bergan ekan: "Faqr oilasidan ekani: husn-u malohatda o'rtacha ekanidan saroy doirasida ko'runmaydur". Tazkira muallifi o'z ma'lumotiga ko'ngli to'lmay, tazkirada Mahzunaning saroy adabiy muhitidan xoli ijob qilganiga yana diqqat qaratgan: "Muhammad Soleh Oxund devon Muhammad Ali(Qo'qon xoni 1822–1942) yosh chog'ida devon saroyda bo'lgani Mul-la Boshmon bilan yondosh mahallada ekanidan, Nodira esa Muhammad Soleh Oxund devonga "Mirzoyi zarrin qalam" unvoni bergani, bu fozil husni xat inshoga mohir zotga hurmat e'tibori shunchalik bo'lg'ani holda shul joydagi bir shoirani eshitmay, ko'rmay qolmagandur".

Fikrimizcha, Fazliy tazkirada uning husni jamoli ko'rkaboy-ko'rkluk ekanini masnaviysida "bir fozilning qizi", "Qo'qonda mashhur shoiri" deya tojik tilida yaxshi ta'riflagan hamda talmeh san'ati vositasida fazl-u

xislati va ijodini zamondoshi shoiri Nodirayi davron va boburiyzoada shoh Olamgirming shoiri qizi Zebunisoga mahorat bilan qiyoslagan tasvirlar bor. Mullo Fazliy Nodira so'zida so'z o'yini qilib, ham malika Nodiraning ulug' shaxsiga, ham Mahzunaning Qo'qon madaniy hayotida o'z so'ziga ega shoiri ekaniga diqqat qilgan:

*Yake fozili doshte duxtare
Xo'jasta liqo moh, nek axtare*

Tarjimasi:

*Bir fozilning tovu ko'rinishli
Oy singari yorug' yuzli
bir qizi bor edi.*

*Bu ma'ni chu Zebunniso, Nodira
Ba Xo'qand mashhura va shoiri*

Tarjimasi:

*Ma'noda Zebunnisoga
o'xshash Nodira edi,
Qo'qonda mashhur shoiri edi.*

Po'lotjon Qayyumov shoiri devoni xususida har ikki asarida muhim xabarlar yozar ekan, uning devonini ko'rgan kishidan eshitgani va u haqida yozgan fiqrada alohida ta'kidlab aytgan: "Mahzunaning bir devoni bor ekanini ko'rgan kishidan eshitildi. Lekin bu satrlarni yozilish oldida ko'rushga muyassar bo'lganimiz yo'qdur". Tarixiy kitobida esa shunday yoritgan: "Majmuai shuaro"da Fazliyning ko'rsatganidan tashqari kichikroq qo'lda bir devoni bor deb eshitdim. Lekin ko'rishga muvaffaq bo'lmadim".

Po'lotjon Qayyumov shoiraning Fazliy bilan mushoiri qilganini eshitgan va mushoiri matnini o'qib savollarga aytgan mazmunli, ta'sirli javoblardan kelib chiqib, uning jur'atiga tahsin aytgan: "XIX asrning boshlarida o'tmish shoiraning davriga oid diniy qisanqiliqni e'tiborga olgan bir ruhoni imomning qizi uchun bir begona erkak bo'lmish Fazliy bilan mushoiri etishning o'zi ham(Agarchi vosita bilan bo'lsa ham) zo'r jur'atdur... Devon topulsa, ul davr yana ravshanroq ko'rungan bo'lar edi. Vafoti to'g'risida ma'lumot hanuz ochiq tarix yo'q. Shoiraning arabiy va tojik tilidan xabardor ekani ash'oridan ko'rinadur. Uning she'rlari ravon, xushohang, sifatlashlari o'runlidir". Ko'rinadiki, Po'lotjon Qayyumov shoiri devoni topilishiga umid bildirgan hamda Fazliy va Mahzuna o'rtasida bo'lib o'tgan mushoiri xat vositasida bo'lganiga diqqat qaratgan. Bu mushoiraga barcha tadqiqotchilar qiziqqan va Po'lotjon Qayyumiy tazkirada, To'xtasin Jalolov antologiya-

da o'zi, fikrlari isboti uchun mushoiri matnini to'liq berishga harakat qilishgan. Masalan, Po'lotjon Qayyumov "Mavlono Fazliy shoiraning she'rlariga tubandagicha baho berib qadrlaydi: Garchi ul zaifa bo'lsa ham nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundur, deydi. Shoiraning Fazliy bilan mushoirasi ajoyib bo'lub, fazl-u kamolotidan xabar beradur. Albatta bu mushoiri xat vositasi bilan bo'lgani ma'lumdur" deb munozara matnini tazkiraga ilova qilgan. Ko'rinadiki, Mahzunaning Fazliy bilan aytgan munozarasi Qo'qon adabiy muhitida iliq kutib olingan va bir adabiy hodisa sifatida e'tirof etilgan. To'g'ri, Sharq adabiyoti tarixida shoir va shoiralar o'rtasida mushoiri aytish, munozaraga kirishish ko'p bo'lgan va bu bir usul sifatida shakllangan. Jomiy va Bibicha o'rtasida kechgan munozarani eslash kifoya. Bu xususida Faxriy Hiraviy "Ravzat us-salotin" tazkirasida yozgan. O'rganishimiz shuni ko'rsatdiki, hatto, ayrim shoiralar mushoiri sabab malomatga ham uchragan. Masalan, yuqorida nomi zikr qilingan Hisordan chiqqan shoiri Ulouj Qobuliy Buxoriyini mushoiriga chaqirib bayt jo'natgani uchun qadr topmagan, uning Buxoro adabiy muhitida masxara bo'lgani kuzatiladi. Bu haqda Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahhob"da batafsil yozgan: "Qobuliy Buxoriy... yo'li Hisor tarafga tushibdi. Mavloloning tashrifidan Hisor ahli shodmon bo'lib, suhbatiga oshiqibdilar. O'sha yerda Ulouj otli nazmga tab'i bor bir juvon mullo bilan mushoiri qilib, she'r aytmoqchi bo'libdi va uning bu baytini bittasi o'qib beribdi. Bayt:

*Mujgoni tu, ey nigori ra'no,
Bo mo safi jang menamoyad.*

(Mazmuni: *Ey ra'no yuzli yigit, kipriklaring biz bilan urushgali safga tizilibdi-ku!*)

Shoiri bu hajviyona baytni mullo sha'nida aytgan ekan, mullo Qobuliy ham badiha aytibdi, uniki:

*On murg' ki, kanda parashro,
Ishkam zada rang menamoyad.*

(Mazmuni: Ul tovuq kim? Patini yulqib, hurpaygancha aslini ko'rsatmoqda.) Yig'in ahli xursand bo'lib, mulloga ortiqroq darajada ixlos qo'yibdilar"(Hasanxoja Nisoriy. *Muzakkiri ahhob. Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1998. 82-bet.*). Ko'rinadiki, aslida, shoiri baytida salbiy ohang yo'q, u Sharq mumtoz lirikasida an'ana bo'lgan sifatlash, va o'xshatish, murojaat she'riy san'atlardan foydalanib, kifriki saf turgan jangchiga o'xshatib badiiy tasvir yaratgan. Hisorga kelgan

mehmon shoir Mavlono Qobuliy o'z haddi va hurmatini bilmay, johillik bilan shoirani tovuqqa mengzagan va mushoiraga teng ko'rmagan.

Yana Mullo Fazliy va shoiri Mahzuna munozarasi tahliliga diqqat qaratsak. Fazliyga javob sifatida aytgan baytlarida tamsil san'atiga, ya'ni hayotiy lavhalar bilan dalillash usulini qo'llash kuchli ekani kuzatiladi. Ganj topish mashaqqati yoki ganj topgan odam, yo ganj ko'mgan shoh guvohlarni o'ldirishiga ishora bor. Bu kabi tamsil Navoiy lirikasida uchraydi. Fazliy shoiraning nuqtadonligi, nozikfahmliygiga hayrati oshib, ustoz kimligiga qiziqishi ortadi va o'yning quyoshdan nur olishini tamsil qilgan. Tabiatda ham oy quyoshdan nur oladi. Quyosh qancha yorqin porlasa, oy shuncha tiniqlashadi. Bir baytda esa maysaning barq urib ko'karishi uchun oftob nurining ahamiyati eslatilgan. Fazliy mushoirada "mahzun" so'zida so'z o'yini qilib, ko'ngil mahzunligi va shoiraning Mahzuna ismiga ishora qilgan. Baytda qo'llangan Naman-gan ham tarixiy geografik atama, ham tug'ilgan yurtiga ketishi kabi ma'no-larda ifodalangan. Mahzuna javob aytgan so'nggi baytda qo'llangan so'zlar vositasida lingvopoetikdan unumli foydalangan. Ma'lumki, g'am uyi an'anaviy timsol bo'lib, eng mashhuri o'g'li Yusufni yo'qotgan Ya'qubning g'am uyidir. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy lirikasida ham bu timsol ko'p uchraydi. "Fazli" so'zida shoiri ustalik bilan fazli, tab'i Ollohning in'omi ekani va shoiri Mullo Fazliy ismini nazarda tutganiga guvoh bo'lamiz:

*Bayt-ul xazon ichinda uzlat
tutub bu Mahzun.
Fazli ilohidur bu yo'qsa
kitob ko'rmay.*

El orasida Mahzunaning she'rlari mashhurligiga e'tibor qilgan Po'lotjon Qayyumov "Shoiraning lutfomez nuqralaridan el og'zida ko'p uchraydi" deya yozadi. Yana "Jumladan budur Fazliy aytadur: Uning chuqur nuqtali so'zlarini ko'nglim istar, borib yozishar edim".

Tazkiranavis tazkirada "Mahzunaning tojik tilida yozmish bir g'azali ham bordur. Tubandagi muxammasda ochiqdan ochiq bir mirzoya oshiq bo'lmisham deydu. Bu esa shuldur", deb muxammasni to'liq keltirgan.

Adabiy merosi. Mahzunaning adabiy merosini o'zbek adabiyotshunosligida Fazliy Namangoni, Nasrullo Davron, Po'lotjon Qayyumov, To'xtasin Jalolov kabi olimlar o'rganishgan va lirikaning g'azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, munozara janrida yozgan namunalarni to'plashga harakat qilishgan. M.Muinzoada esa shoiraning tojik



tilida yozgan she'rlari tarjimoni hisoblanadi.

Mahzunaning hasbi holi va ijodiy merosi haqidagi dastlabki aniq ma'lumotlarni uning zamondoshi Fazliy Namangoniy "Majmuayi shoiron" tazkirasida yozib qoldirgan va uning shoira haqida bitgan qimmatli ma'lumotlari keyingi adabiy va tarixiy manbalarga asos bo'lib xizmat qildi.

Kitob boshida:

*Zi Xo 'qand Mahzunai shoira,
Ba xayli niso nodir-u foxira.*

(Shoira Mahzuna Qo'qondan bo'lib, ayollar orasida nodir va faxrlidir.)

*Xayolash muvofiqi ba royi savob,
Suxanhoyi u dar axiri kitob.*

(Uning xayoli to'g'ri ra'yga muvofiq bo'lib, u haqdagi so'z shu kitobning oxiridadir).

Kitob so'ngida Fazliy yozgan ma'lumotda quyidagilarni o'qiymiz: Masnaviy:

*Chu Mahzuna on bo'stoni bayon,
Chu savsan ba bog'i
suxandehi zaban.*

(Bayon bo'stonidagi o'shal Mahzuna, Tilning so'z aytuvchi bog'ining savsani edi.)

*Ba maydoni sherash mapindor zan,
Garav burda az mard go'yi suxan.*

(She'riyat maydonida uni ayol deb o'ylama, So'z go'yini erkaklardan olib ketgan.)

*Mazomin bud saydi fitroki u,
Baland ast taxsiri idroki u.*

(Fikrining saydi tazmin bo'lib, Idrokining egallashi yuqridir.)

*Dar in yak muxammas
az on arjumand,
G'izoli ma'oni bud to band.*

(Bu arjumand mana bu bir muxammasda,

Ma'nolar ohusini sayd qilgandir.)

2. "Muxammasi Mahzuna" asari. Fazliy tazkirada "Muxammasi Xijlat"-ga baho berib yozgan ushbu baytini "Muxammasi Mahzuna"ga ham berilgan yuksak baho deb aytak bo'ladi, ya'ni:

Muxammas bog'lashni xayol qilib,
Bu so'zda o'zining kamolini ko'rsatdi.

Shoira Mahzuna Maxtumquli, Uvaysiy, Xijlat kabi Fuzuliy g'azaliga mahorat bilan muxammas yozgan va o'zbek adabiyoti tarixida "Muxammasi Mahzuna" nomi bilan mashhurdir:

Muxammasi Mahzuna

*Do'stlar, bir husni behamtuya
oshiq bo'lmisham,
Hur paykar bir malak siymoya
oshiq bo'lmisham,
Nutqi shirin, la'li ruhafzoya
oshiq bo'lmisham,
G'amzasi qotil, ko'zi shahloya
oshiq bo'lmisham,
Husn elining shohi bir mirzoya
oshiq bo'lmisham.*

*Ko'rmas ermas elga bir mahvashni
chashmi ro'zg'or,
Xulqi shirin, gulbadan, rashki
chaman, nasrin uzor;
Nozanin-u tag'ofulpesha,
istig'no shior,
Iltifot etmas agar yuz jon
topib qilsam nisor,
Bir sitamgar sho'xi beparvoya
oshiq bo'lmisham.*

*Orazin ochqach quyosh
anvorini aylar adam,
Jon g'izolig'a berur vahshiy
ko'zi ta'limi rom,
Lablarini ollida qand-u
asaldur misli samm,
Zulf-u qadd-u orazidin
munfa'il bog'i Eram,
Kishvari husn ichra bir
yaktoya oshiq bo'lmisham.*

*Qoshlari bir-birig'a payvand,
iki mushkin hilol,
Ko'zlari yuz marg'zorig'a
ikki vahshiy g'izol,
Qomati bog'i murod ichra
yangi bitgan nihol,
Alloh, Allah kim ko'rubdur
bu latofat-u jamol,
Husn aro bir misli nopaydoya
oshiq bo'lmisham.*

*Ushbu hayrat birla ko'rgan
naxli qaddi jilvagar,
Bovar etmas gar ulus bersa
shahodat deb bashar,
Orazi andog' musaffokim,
qilib bo'lmas nazar,
Badri ruxsori ko'rub bo'ldi
xijolat bu qamar,
Rashki Yusuf bir buti zeboya
oshiq bo'lmisham.*

*Mahvashi huri liqo, gulgun
qabo, gul pirahan,
Qoshi istig'no, hiloli
g'amzasi lashkar shikan,
G'uncha xandondur og'zi,
tishlari durri Adan,
Bo'ldi bir dam jamolidin
yoruq bayt-ul hazan,
Toki ul mohi jahon piroya
oshiq bo'lmisham.
Ey mani Mahzun musofirg'a
malomat besabab,
Tutmasam farmonini mardud
etib aylar g'azab,
Juz rizoyi do'st ishq ahlig'a
ne bo'lg'ay talab,
Chiqqali islomdin zunnor
bog'lab yo'q ajab,
Manki bir din ofati tarsoya
oshiq bo'lmisham.*

3. "Fazliy va Mahzunaning savol-javobi" asari adabiyotshunoslikda lirik turning mushoira, munozara janri sifatida baholangan. Qo'qon adabiy muhitining ikki vakili o'rtasida bir-biriga hurmat saqlagan holda, yuksak adabiy estetik did bilan badiha aytilgan. Unda har ikki ijodkor o'z qiziqishlarini nozik did bilan bildirgan, ma'lum o'rinlarida tuyg'ulari tasvirlangan, ba'zi baytlarda hasbi hollari bayon qilingan. Ifoda usulida an'ana va o'ziga xoslik aks etgan:

Fazliy:

*Yuz ofarin so'zungga lubbi
lubob ko'rmay,
Arzi jamol etarmu oyina
ob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Kimdin chiqar bu so'zlar
bag'rin kabob ko'rmay,*

*Ganj o'lmag'ay muyassar
holin xarob ko'rmay.*

Fazliy:

*Masturayi suxang'a
pushidalig' munosib,
Ma'ni arusini bas men
beniqob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Yo'q aybi so'zlarimni gar
bo'lmas muaddab,
Andoqki, o't ko'kargay hech
oftob ko'rmay.*

Fazliy:

*Maygun labing hadisi mast
etti g'oyibona,
Kayfiyat o'ldi zohir jomi
sharob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Bir vajhi buki tab'im xom
asramish zamona,
Charxi sipehrdin ul
pech-u tob ko'rmay.*

Fazliy:

*Mundog'kim nuqtadonsan,
kim erdi ustoding,
Oy kasbi nur qilolmas to
oftob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Ko'b nahrlar yig'ilsa daryoyi
pur dur o'lg'ay,
Ilm ahlidin bu miskin bir
shayx-u shob ko'rmay.*

Fazliy:

*Bir nukta ayla zohir,
Fazliyni qo'yma Mahzun,
To ketamyin Namangon
sandin javob ko'rmay.*

Mahzuna:

*Bayt-ul hazan ichinda uzlat tutib bu
Mahzun,*

*Fazli Ilohiydur (bu) yo'qsa kitob
ko'rmay.(Fazliy Namangoniy.
Majmuai shoiron. Toshkent: 2018.
329-330-betlar.)*

Xulosa shuki, Mahzuna haqida 2 ta tazkirada, 1 ta tarixiy kitobda, 1 ta antologiyada ma'lumot yozilgan va mahorat bilan 5 ta janrda bitgan she'rlaridan namuna berilgan. Qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rni yuksak bo'lib, shoira alohida figura sifatida O'zbek adabiyoti tarixiga kirishga loyiq. Yana Mahzuna hayoti va ijodi misolida Qo'qon xonligida rivojlangan adabiy muhit hodisalari, xususiyati va adabiy ta'sir masalalaridan ham xabardor bo'lamiz.

Burobiya RAJABOVA,
O'zRFA O'zbek tili,
adabiyoti va folklor instituti
yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi

Qutlov

Ilm va fan fidoyisi

tabiiy birikmalar kimyosi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda



24-may kuni o'simliklardan dorivor moddalar olish texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarishga tadbiq etish sohasi bo'yicha yirik texnolog olim, texnika fanlari doktori, akademik, O'zbekiston Respublikasining fan va texnika sohasidagi I darajali Davlat mukofoti laureati, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Birinchi vitse-prezidenti, Bosh ilmiy kotibi, S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi instituti direktori Shomansur Sagdullayev 75 yoshga to'ladi.



U o'z ilmiy faoliyatini 1975-yili O'zR FA O'MKI-ning tajriba-texnologiya laboratoriyasida boshlagan. Olimning ilmiy qiziqishlari asosan dorivor o'simliklarning alkaloidlari, izoprenoidlari, boshqa gidrofil, lipofil birikmalarini ajratib olish va fraksiyalash jarayonlarini tadqiq qilishga qaratilgan edi. 1984-yili "Paxta chigiti chiqindisidan fitin olish texnologiyasi" mavzusidagi texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2007-yili esa Sh.Sagdullayev o'zining ko'p yillik tadqiqotlari natijalarini umumlashtirib, "Aconitum leucostomum, Aconitum septentrionale, Ungernia Victoris, Rosa canina dorivor o'simliklari va paxta chigiti chiqindisini kompleks qayta ishlash texnologiyasi" mavzusi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Akademik Sh.Sagdullayev va hammualliflar tomonidan tadqiq qilingan alkaloid saqllovchi o'simliklardan allapinin, aklezin, aksaritmin va galantamin gidrobromidi antiaritmik xususiyatga ega bo'lgan dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqishga asos solingan.

"Allapinin" aritmiyaga qarshi yangi dori vositasi substansiyasini yaratish va ishlab chiqarish, uni klinik amaliyotga tadbiq qilishdagi mehnatlari uchun Sh.Sagdullayev hammualliflari bilan O'zbekiston Respublikasi fan va texnika sohasidagi I darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Hozirgi kunda O'zR FA O'MKI tajriba ishlab chiqarish korxonasida allapinin dori vositasi substansiyasini ishlab chiqarish hajmi yiliga 800 kilogramga yetgan, valyuta tushumlari hajmi esa 2 mln. dollarni tashkil etadi. Sh.Sagdullayev tashabbusi bilan institutda o'simlik (asosan soya) fosfolipidlari, dorivor va oziq-ovqat o'simliklari ekstraktlari asosida dori vositalar yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar boshlangan. Kimyoviy va farmako-toksikologik tadqiqotlar natijasida fosfolipin (likopinli fosfolipidlar) gepatoprotektori va gepalipin (likopin, ekdisten va glisirizin kislotasi), shuningdek, ekdistenning liposomal dori vositalari yaratilgan, ulardan biri organizmning o'ziga xos umumiy qarshiligini oshiradi, boshqasi antiaritmik faollikni namoyon qiladi.

Organik va bioorganik kimyo sohasidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda yuqori antiaritmik faollikka ega yangi moddalarni modellashirish va sintez qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, diterpen alkaloidlar asosida yuqori antiaritmik faollikka ega istiqbolli birikmalarni yaratish maqsadida 100 dan ortiq yangi moddalar sintez qilindi. Ushbu birikmalarning farmakologik va toksikologik xususiyatlari kompleks ravishda baholanmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida sintez qilingan moddalardan ikkitasi kam zahariligi va yuqori biologik faolligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Hozirgi vaqtda mazkur birikmalarning klinik oldi(preclinical) sinovlari izchil davom ettirilmoqda.

Keyingi yillarda Shomansur Sagdullayevning tashabbusi va sa'y-harakatlari natijasida institut zamonaviy ilmiy-tadqiqot va yuqori texnologik analitik uskunalar bilan kompleks ravishda jihozlandi. Jumladan, yuqori kritik flyuid ekstraksiyasi (AQSH), ultrafiltratsiya tizimlari (Fransiya), aralashtirish hamda sirkulyatsion qurilmalar bilan ta'minlangan ekstraktorlar, ishlab chiqarish quvvati soatiga 200 litr bo'lgan quritish uskunasini (AQSH), element analizatori (Shveysariya), yuqori

tomonidan yuqori baholanib, Scopus va Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan, yuqori im-pakt-faktorli jurnallarda 50 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr etildi.

Xalqaro hamkorlik doirasida institut huzuridagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda xorijiy tadqiqotchilarning PhD va DSc dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilinib, ilmiy maktabning xalqaro nufuzi yanada mustahkamlandi.

So'nggi yillarda Sh.Sagdullayev ilmiy faoliyatidan tashqari, deputat va senatorlik ishida faol jamoatchilik va davlat arbobi sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish, aholi murojaatlari bilan ishlash hamda hududlardagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda faol qatnashdi.

Fandagi uzoq yillik samarali mehnatlari va yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib baholanib, Shomansur Sagdullayev "Shuhrat" medali, O'zbekiston Respublikasi fan va texnika sohasida davlat mukofoti, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni va "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Sh.Sagdullayev tabiiy birikmalar kimyosi, farmatsevtika va dori vositalari texnologiyasi sohasida O'zbekiston ilmiy maktabining rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik olim va tajribali ilmiy tashkilotchi hisoblanadi. Uning rahbarligida fundamental tadqiqotlar natijalari amaliyotga samarali joriy etilib, original mahalliy dori vositalari yaratildi, institutning xalqaro ilmiy nufuzi va innovasion salohiyati sezilarli darajada oshdi.

U shakllantirilgan zamonaviy ilmiy muhit, xalqaro hamkorliklar va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi mamlakatimizda farmatsevtika va tibbiy kimyo sohalarining barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Uning ko'p qirrali ilmiy, tashkiliy va jamoatchilik faoliyati nafaqat milliy ilm-fan, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan ham yuksak e'tirof etilgan.

Ustozlik – bu eng sharaflari va mas'uliyatli kasblardan biridir. Siz yosh avlod qalbiga ilm nurini singdirib, ularda mustahkam bilim, ezgu qadriyatlar va yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishda bebaho hissa qo'shib kel-



aniqlikdagi YAMR-spektrometr (600 MGs, Yaponiya), shuningdek yuqori samarali suyuqlik xromatograflari o'rnatildi. Mazkur zamonaviy asbob-uskunalar institut xodimlariga fundamental va amaliy yo'nalishlarda xalqaro darajadagi yuqori aniqlikka ega ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratmoqda

Zamonaviy bioorganik kimyo va farmakologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida moddalarning struktura tuzilishi va farmakofor guruhlari-ning fazoviy joylashuvi bilan bog'liq ravishda ularning biologik faolligini aniqlash masalalari tizimli ravishda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, dorivor o'simliklar tarkibidagi biologik faol birikmalarning sifat va miqdoriy tahlil usullarini takomillashtirish, ularni yuqori darajada tozalikda ajratib olish hamda innovatsion ekstraksiya va tozalash texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi besh yil davomida olib borilgan tadqiqotlar natijalari xalqaro ilmiy hamjamiyat

moqdasiz. Soha kelajagi, taraqqiyoti va bunyodkorlik yo'lida erishilayotgan yutuqlarimiz zahirida fidokorona mehnatingiz, sabr-toqatingiz va mehr-muhabbatigingiz mujassamdir. Sizning har bir so'zingiz – ibrat, har bir amalingiz – saboq, mehringiz esa qalblarga nur bag'ishlaydi. Sh.Sagdullayev o'ziga bildirilgan ishonchni hamisha qadrlab, unga mas'uliyat bilan yondashib keldi va uni oqlash uchun vaqt bilan, qolaversa salomatlik bilan hisoblashmay mehnat qildi.

Sizga sog'liq, bardavom kuch-quvvat, oilaviy farovonlik va mashaqqatli mehnatingizda ulkan zafarlar tilayman. Yurtimizga bilimli, yetuk va vatanparvar avlodni tarbiyalashdagi sa'y-harakatlaringiz bardavom bo'lsin!

Sobir NISHONBOYEV,
O'simlik moddalar kimyosi instituti
Terpenoidlar va fenol birikmalar
laboratoriyasi mudiri,
kimyo fanlari doktori



SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026-2027-O'QUV YILI UCHUN KAFEDRALARDAGI VAKANT LAVOZIMLARGA ZAMONAVIY BILIM VA KO'NIKMALARGA EGA PROFESSOR- O'QITUVCHILAR VA MAGISTRLARNI ASOSIY SHTATGA ISHGA QABUL QILISH BO'YICHA

TANLOV E'LON QILADI

(PhD) DOTSENT LAVOZIMI-GA:

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi” kafedrasiga – 1 nafar;

“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasiga – 1 nafar;

“Pedagogika” kafedrasiga – 1 nafar;

“San'atshunoslik” (Musika ta'limi) kafedrasiga – 1 nafar;

“Til va adabiyot” (O'zbek tili va adabiyoti) kafedrasiga – 1 nafar;

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasiga – 1 nafar;

“Rus tili va adabiyoti” kafedrasiga – 1 nafar.

KATTA O'QITUVCHI LAVOZIMIGA:

“Pedagogika” kafedrasiga – 1 nafar;

“Matematika va amaliy matematika” kafedrasiga – 1 nafar;

“Tarix” kafedrasiga – 1 nafar;

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasiga – 1 nafar;

“Texnologik ta'lim” kafedrasiga – 1 nafar;

“Til va adabiyot” kafedrasiga – 1 nafar;

“Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti” kafedrasiga – 1 nafar.

O'QITUVCHI (ASSISTENT) LAVOZIMIGA:

Ijtimoiy fanlar kafedrasiga – 1 nafar

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

“Texnologik ta'lim” kafedrasiga – 1 nafar;

“Maktabgacha ta'lim” kafedrasiga – 1 nafar;

“Tabiiy fanlar” kafedrasiga – 1 nafar;

“San'atshunoslik” kafedrasiga – 1 nafar;

“Geografiya” kafedrasiga – 1 nafar.

NOMZODLARGA QUYIDAGI MALAKA TALABLARI QO'YILADI:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha chiqargan farmon, farmoyishlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va o'quv jarayonida o'quv-me'yoriy hujjatlarning yuritilishidan xabardorlik;

– talabgorning ilmiy darajasi, ilmiy unvonining mavjudligi;

– Talabgorning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashg'ulligi, keyingi yillarda e'lon qilingan ishlari (materiallar ko'rsatiladi);

xorijiy tillarni bilish darajasi (xorijiy til yo'nalishlariga C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatlari taqdim etiladi) va undan mashg'ulotlar jarayonida foydalana olish malakasi;

– kompyuter texnologiyasidan foydalana olish va ta'lim jarayonida qo'llay olishi, masofaviy ta'lim hamda kredit-modul tizimi haqidagi bilim va ko'nikmaga egaligi;

– namunaviy shaxsiy fazilatlariga – intellekt, madaniyat darajasi yuqori bo'lishi, ijodkorlik, xushmuomalalik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lish, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, institut strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash xususiyatlariga ega bo'lishi lozim.



TANLOVGA QATNASHISH UCHUN tanlov.shdpi.uz SAYTI ORQALI QUYIDAGI HUJJATLAR YUKLANADI:

- rektor nomiga ariza;
- ma'lumotnoma (obyektivka);
- pasport nusxasi;
- diplom (bakalavr, magistr ilovalari bilan), ilmiy darajasi va ilmiy unvon to'g'risidagi diplom nusxasi (mavjud bo'lsa);
- ilmiy ishlar va ilmiy maqolalar ro'yxati. (3x4 shakl)

Izoh: xorijiy til yo'nalishlariga C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatlari bo'lgan talabgorlarning hujjatlari qabul qilinadi.

Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlar matbuotda e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'chasi, 10-uy.

Ma'lumot uchun:

Tel/faks: (75) 522-40-58;

e-mail: info@shdpi.uz.

Tg: <https://t.me/ShDPIuz>

Hujjatlar Shahrisabz davlat pedagogika institutining tanlov.shdpi.uz sayti orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

RAQAMLI USTOZ

ta'limga qanday ta'sir o'tkazadi?



Sun'iy intellekt ta'lim sohasiga jadal kirib kelmoqda. Global statistikalariga ko'ra, 2020–2023-yillar oraliqida ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish 47 foizga oshgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalari-ning jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. An'ana-viy pedagogik yondashuvlar o'rniga raqamli yechimlarga tayangan, ma'lumotlar asosida qaror qabul qiluvchi, talabani-ning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi ta'lim muhiti shakllanmoqda. Tadqiqot-larga ko'ra, o'qituvchilarning 78 foizi sun'iy intellekt haftasiga besh soat vaqt-ni tejashga yordam berishini ta'kidlashgan. Bu vaqt esa asosan dars rejasini tuzish, testlarni tekshirish va ma'muriy ishlarni bajarishga sarflanadi.

Bundan tashqari, ayrim Osiyo mam-

lakatlarida maktablarning 60 foizdan or-tig'ida, xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarda sun'iy intellekt o'quvchilarning test natijalarini avtomatik baholashda, yozma ishlarini tahlil qilish hamda bilim darajasini aniqlash jarayonlarida faol qo'llanilmoqda. O'quv-chilar ham sun'iy intellektdan bilmagan savollariga javob topishlari mumkin.

Kembrij ingliz tilini o'rganish platfor-masi individual ta'lim tizimini yaratishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ushbu platfor-ma ma'lum bir o'qituvchini talab qilmaydi hamda boshlang'ich bilimi bor o'rganuv-chilar uchun qulay sharoit yaratadi. U

nutqni tinglash orqali ingliz tilini bilish darajasini aniqlab beradi. Bu til roboti Sandy bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Agar savollar qiyin bo'lsa, ballni yaxshilash uchun yana bir bor ur-nib ko'rish imkonini beradi. Eng muhim jihati, nutqni xalqaro miqyosda tan olin-gan CEFR shkalasi bo'yicha baholaydi. Bundan tashqari u foydalanuvchilarga ish, o'qish, imtihonlar uchun o'zlarining nutq qobiliyatlarini tushunishlariga ham yor-dam beradi. Bu degani, til o'rganayotgan odamlar sun'iy intellekt yordamida o'zlari mustaqil til sertifikatlariga ham tayyorlana olishlari mumkin.

Sun'iy intellekt ta'limni uch asosiy yo'nalish bo'yicha takomillashtirmoqda: birinchidan, o'quv jarayonini sifatli amalga oshirish uchun innovatsion vositalar bilan ta'minlaydi; ikkinchidan, ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtiradi; uchinchi-

dan esa ma'lumotlar tahliliga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi.

Ta'lim kontekstida sun'iy intellekt deganda, ma'lumotlar qatlamini chuqur tahlil qilish orqali mustaqil funksiyalar-ni bajaruvchi, o'quv jarayonini bosh-qaruvchi va talabaga mos kontent yara-tishni qo'llab-quvvatlovchi aqlli tizimlar yig'indisi tushuniladi. Chatbotlar, intel-lektual o'qituvchi dasturlar, moslashuv-chan test tizimlari, ovozdan matnga va matndan ovozga o'tkazish texnologi-yalari, avtomatlashtirilgan baholash al-goritmlari hamda o'quv ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilishga imkon beruvchi analitik tizimlar Sining amaliy ifodasidir. Bu maktab o'quvchilaridan tortib talaba va o'qituvchilar uchun ham qo'l keladi. O'quv jarayonining samaradorligini oshi-rish bilan birga, ta'limning inklyuzivligini kuchaytiradi, imkoniyati cheklangan yoki chekka hududlarda yashovchi tala-balarga ham sifatli bilim berish imkonini yaratadi.

Xosiyatbonu QAYUMOVA,
TAFU talabasi,
Gulbahor RASULOVA,
TAFU o'qituvchisi

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

I. "Amaliy grafika va badiiy fotografi-ya" kafedrası

– dotsent.

II. "Dastgohli rangtasvir" kafedrası

– o'qituvchi.

III. "Dizayn" kafedrası

– professor.

IV. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrası

– professor;
– dotsent;
– o'qituvchi.

V. "Teatr bezagi rangtasviri" kafed-rası

– dotsent;
– o'qituvchi.

VI. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrası

– kafedra mudiri;
– o'qituvchi.

VII. "Muzeysunoslik" kafedrası

– katta o'qituvchi;
– o'qituvchi.

VIII. "Chizmatasvir" kafedrası

– dotsent;
– o'qituvchi.

IX. "Ijtimoiy fanlar va informatika" kafedrası

– professor;
– dotsent.

X. "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrası

– katta o'qituvchi;
– o'qituvchi.

**TANLOVDA ISHTIROK ETISH
UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR
TAQDIM ETILISHI LOZIM:**

– institut rektori nomiga ariza;
– xodimlar shaxsiy varaqasi;
– oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
– mehnat daftarchasi nusxasi;
– ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
– ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fo-toalbomi;
– kataloglar.

Eslatma! Hujjatlar e'lon chiqqan kun-dan boshlab bir oy muddat ichida institut kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.



Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefon raqamlar: (71) 255-18-33, 255-98-39.



Xudayberganov Munis Ruzibayevichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Erta yoshdagi bolalarda sitomegolavirus va herpes asosiyalangan allergik dermatozlarning diagnostikasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Ibragimova Feruza Ikramovnaning 14.00.21 – Stomatologiya(tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Kimyoviy sanoat ishchilarida stomatologik kasalliklarining profilaktikasi va bashorat qilish bo'yicha konseptual yondashuv” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Raxmonov Dilshod Ilxomjonovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Adir yerlarida eroziyaga qarshi suvtejamkor texnologiyalarning samaradorligini tadqiq qilish(Zangiota tumani, “Zangiota-Navro'z” massivi misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy, 2-A bino, 239-xona.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Kenjayev Qudduz Shavkat o'g'lining 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o'zlash-tirish hamda ishlatish ixtisosligi bo'yicha “Konlarni ishlatishning oxirgi bosqichlarida quduqlardagi korroziyalar va tuz yotqiziqslarining oldini olish samaradorligini oshirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O'ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 280-67-00; e-mail: liting@liting.uz

Umarov Aziz Rustamovichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Tug'ruqdan keyingi endometritlarni tashxislash va bashoratlashning zamonaviy yondashuvi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: google@tashmeduni.uz

Zokirov Bahodir Shavkatovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika) ixtisosligi bo'yicha “Yo'nalishga kirish fanini o'qitish metodikasini mobil dasturiy ilovalar vositasida takomillashtirish(Elektr energetikasi ta'lim yo'nalishi misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.
Tel/faks: (79) 223-04-40, 223-49-66; e-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com

To'ramatov Rustam G'opurovichning 06.01.06 – Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha “Takroriy muddat uchun qovoq navlarini tanlash va yetishtirish texnologiyasini ayrim elementlarini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b, SPE va KITI binosi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Azizova Adiba Qosim qizining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Och tusli bo'z tuproqlari sharoitida yeryong'oq yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish(Qashqadaryo viloyati misolida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
vab-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Nasirova Shaxlo Shuxratovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Metabolik buzilishlar bo'lgan ayollarda gestatsion diabetni prognozlash va boshqarishning zamonaviy jihatlarini” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-0050; e-mail: info@bsmi.uz

Soliyev Ziyoyiddin Shuxratbek o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Ertapishar yuqori hosilli piyoz navlarini yaratish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasisiz ixtiro patenti asosidagi himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b, SPE va KITI binosi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Nazarov Jaloliddin Sulton Erkinovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Dori vositalariga multi va keng rezistent birlamchi hamda ikkilamchi silning qiyosiy immunobiologik tavsifi” mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Quryazov Shohrux Akbar o'g'lining 14.00.21 – Stomatologiya(tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Balog'at yoshidagi qizlarda stomatologik salomatlikni saqlashning klinik va tibbiy-ijtimoiy jihatlarini” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Raxmatullayev Akmal Akbarovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.20 – Tibbiy genetika ixtisosliklari bo'yicha “Dilatatsion kardiomiopatiya: immunogenetik omillar va immunomodulyatsiyalovchi terapiya imkoniyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Jurayev Kamoliddin Danabayevichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Onasida preeklampsiya va eklampsiya bo'lgan neonatal davrda vafot etgan chaqaloqlar timusining morfologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: info@bsmi.uz, buhmi@mail.ru

Ibraximova Nodira Otabekovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Qizlarda jinsiy rivojlanishdan orqada qolishni tashxislashni optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: info@tashmeduni.uz

Suyunov Abdug'ani Shavkat o'g'lining 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Grunтли to'g'onlarning ustuvorligi va kuchlanganlik holatini gruntidagi filtratsiyani hisobga olgan holda baholash(Ayoqchi gruntli to'g'oni misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03./2025.27.12.T.14.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 228-“a” uy.
Tel/faks: (76) 221-87-20, 221-87-20; e-mail: info@tdmau.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Fizika fakulteti “Fotonika” kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori Shavkat Otajonovga turmush o'rtog'i
APANAY AYaning vafoti munosabati bilan yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.



Ta'lim muassasalarida

MUVAFFAQIYATLAR MANZILI



Yunusobod tumanidagi 117-maktab nafaqat o'quvchilarning bilim olishi, balki ularning sport, san'at va ilmiy sohalaridagi yutuqlariga ham qanot bo'lmoqda. Muassasadagi shart-sharoit, ustoz va shogirdlarning muvaffaqiyatlarini kuzatib, mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z mevasini berayotganini anglash mumkin.

Maktabda 43 nafar o'qituvchi faoliyat yuritib kelayotir, ulardan 5 nafari doktorant, 11 nafari oliy, 23 nafari birinchi toifali o'qituvchilardir. O'tgan yili bitiruvchilarning 83 foizi oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'ldi. 48 nafar o'quvchi umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatga ega. Maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi Kamolaxon Tulayeva joriy yili Vazir ustamasini olishga

sazovor bo'ldi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi O'g'iloy Utegenova esa hozirda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilmoqda.

11-sinf o'quvchisi Samandar Sunnatov maktab faxriga aylangan. Uning sport sohasidagi ulkan yutuqlari e'tirofga loyiq. Samandar 2025-yili Bahraynda bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga



kiritdi. Joriy yil boshida Turkiyada o'tkazilgan nufuzli xalqaro turnirda bronza medalini qo'lga kiritib, o'z mahoratini yana bir bor isbotladi. 24-25-aprel kunlari Germaniyada bo'lib o'tgan "Yoshlar o'yinlari"da dunyoning 35 ta davlatidan kelgan eng kuchli sportchilar qatorida ishtirok etib, finalda ozarboyjonlik raqibini mag'lub etdi va yana bir bor oltin medal sohibiga aylandi.

Samandarning muvaffaqiyati faqat sport maydoni bilan cheklanmaydi. Samandar o'qishda ham yuqori natijalarga erishmoqda. U bilim olishga astoydil intiladi va xulq-atvori bilan ham tengqurlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

O'quvchilar fan olimpiadalari tuman bosqichida ham quvonarli natijalarga erishmoqda. Xususan, 11-sinf o'quvchilari Ahmadbek Sultonov matematika fanidan 3-o'rinni, Nurmuhhammad Hamidullayev esa geografiyadan 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Maktabda "Ona tili – jon-u dilim", "Yosh tilchilar", "Yosh adabiyotchilar", shuningdek, sport, musiqa va chet tili to'garaklari muntazam tashkil etiladi.

Joriy o'quv yilida o'quvchilarning "Turon" teatr tanlovida sektorlar ichida faxrli 2-o'rin, tuman bo'yicha kitobxonlik tanlovida 3-o'rin, "Yosh gvardiya-chi" tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

– Muassasamizdagi o'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida ishlab, malakasini oshirib borayotgani natijasida o'quvchilarning ham bilimga chanqoq, izlanuvchan va faol bo'lib voyaga yetmoqda, – deydi maktab direktori Sunbula Almanova. – Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar, fan va sportga birdek e'tibor qaratilgani o'quvchilarning turli tanlov va musobaqalardagi muvaffaqiyatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etish qiyin. Hozir qaysi sohani olmang, uning rivoji uchun eng avvalo ta'lim tizimi rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, inson kapitali va uning iqtidoriga e'tibor qaratmay turib, natijaga erishib bo'lmaydi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi. Bizning jamoamiz ham bundan kuch olib, yanada olg'a qadamlar tashlab boraveradi.

Mavluda ABDURAHMONOVA,
Yunusobod tumanidagi
117-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V- 6117. Tiraji-6900.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Marifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:



Ⓛ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.